

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**KREDIT-IQTISOD FAKULTETI**

**“TASDIQLAYMAN”**

“Kredit-iqtisod” fakulteti dekani, v.v.b.

i. f. n. prof. Qoraliyev T.M \_\_\_\_\_

**“BANK ISHI ” KAFEDRASI**

**Норбоев Абдулла Ориф ўғли**

**Банк рискларини бошқариш тизимини ривожлантириш  
йўллари**

**5230700 – “Bank ishi” ta’lim yo’nalishi bo’yicha  
Bakalavr darajasini olish uchun**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar:**  
ўк. Зуннунова Х.

“ \_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2015 y.

**“Himoyaga tavsiya etiladi”  
“Bank hisobi va auditi”  
Kafedra mudiri v.v.b.**

\_\_\_\_\_ T.Boltayev

“ \_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2015y.

**TOSHKENT - 2015**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b>		<b>3</b>
<b>I BOB.</b>	<b>BANK RISKLARI VA ULARNI BOSHQARISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI</b>	<b>8</b>
<b>1.1.</b>	<b>Bank risklarining bank faoliyatidagi ahamiyati</b>	<b>8</b>
<b>1.2.</b>	<b>Bank risklarining turlari va xususiyatlari</b>	<b>14</b>
<b>1.3.</b>	<b>Bank risklarini boshqarish va uning nazariy asoslari</b>	<b>24</b>
<b>II BOB.</b>	<b>TIJORAT BANKLARIDA BANK RISKLARINI BOSHQARISHNING JORIY HOLATI</b>	<b>37</b>
<b>2.1.</b>	<b>Tijorat banklari risklarini boshqarish usullari va mezonlari</b>	<b>37</b>
<b>2.2.</b>	<b>Tijorat banklari risklarini boshqarish bo'yicha xalqaro talablar (Bazel)</b>	<b>48</b>
<b>III BOB.</b>	<b>BANK RISKLARINI BOSHQARISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMI</b>	<b>63</b>
<b>XULOSA</b>		<b>76</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI</b>		<b>78</b>

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Mustaqilligimizning ilk davridan boshlab bank tizimida islohotlarni yanada chuqurlashtirish va uning samaradorligini oshirish Respublika hukumati olib borayotgan siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Buni Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan qator Farmonlar va Qarorlarda ko‘rish mumkin.

Buning natijasida bugungi kunda O‘zbekiston bank tizimi qat’iy xalqaro talablarga javob beradigan eng barqaror tizimlardan biridir va ayni paytda belgilangan qator ko‘rsatkichlar bo‘yicha mustahkam pozitsiyalarga ega.

Bank tizimidagi islohotlar iqtisodiyotimizning barqaror o‘shish sur‘atlarini ta’minlashda eng muhim omil bo‘ldi. Buning natijasida tijorat banklarining jami 2014-yilda kapitali 25 foizga oshdi. Bank tizimining mustahkamlanishi 2014-yilda Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasini 10 foizdan 9 foizga, tijorat banklarining kreditlar bo‘yicha foiz stavkasini ham shunga mos ravishda kamaytirish uchun zarur imkoniyatlar tug‘dirdi.<sup>1</sup>

Banklar tomonidan faqat ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash dasturlarini moliyalashtirishga yo‘naltirilgan kreditlar hajmi 2013-yilga nisbatan 1,2 barobar, aylanma mablag‘larni to‘ldirish uchun ajratilgan kreditlar esa 1,3-martadan ziyod oshdi.

So‘nggi yillar davomida «Mudis», «Standart and Purs» va «Fitch reytings» kabi yetakchi reyting agentliklari O‘zbekiston bank tizimi faoliyatini «barqaror» deb baholamoqda. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, agar 2011-yilda mamlakatimizning 13 ta tijorat banki yuqori reyting baholariga sazovor bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda respublikamizning barcha 26 ta banki ana shunday bahoga loyiq ko‘rildi.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi

Rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotidagi barcha operatsiyalar banklar orqali amalga oshiriladi va albatta bu operatsiyalarda risklar yuzaga keladi. Tijorat banklari faoliyatida maksimal daromadga erishishni aniq maqsad qilib bajarilayotgan riskli operatsiyalar natijasida albatta daromadga erishilishiga olib keladi va bu bank boshqaruvining qabul qiladigan qarorlariga ayniqsa bog‘liqdir. Tijorat banklarining riskli operatsiyalari bir tomondan iqtisodiyotning barcha sektorlarida bank-moliya xizmatlarini ko‘rsatadi, jamiyatning iqtisodiy talablarini qondirib, butun jamiyat kapitalini oshishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, mablag‘larini samarali ob‘yektlarga joylashtirilishi banklarning iqtisodiy sub‘yekt sifatidagi daromadini oshiradi. Demak, bank riski bank faoliyatini amalga oshirish jarayonida bank mablag‘larining bir qismini yo‘qotish, yoki daromad olmaslik sharoitida ijobiy natijaga umid qilib, bank operatsiyalarini (depozit, kredit investitsiya, valyuta) o‘tkazishidir.

Xalqaro amaliyot ko‘rsatishicha, bank riskini boshqarishda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar nafaqat mamlakat bank tizimining inqirozli holatining avj olishiga, balki moliya bozorining boshqa segmentlariga transformatsiyalanishi hisobiga tizimli risklarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin. Masalan, 2008-yilda boshlanib hali-hanuz davom etayotgan jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi bunga yaqqol misol bo‘la oladi. AQSh banklari va ipoteka kompaniyalari tomonidan ajratilgan kreditlar tarkibida nostandart kreditlar salmog‘ining ortishi, ishonchsiz qarz oluvchilar o‘rtasida kreditni qaytarmaslik holatlarning ortishi, ipoteka qimmatli qog‘ozlari jozibadorligining pasayishi bank tizimida likvidlilik muammolarining chuqurlashuviga, tijorat banklari to‘lov qobiliyatining pasayishiga sabab bo‘ldi. Ayni paytda, bank tizimi barqarorligini mustahkamlash, bank faoliyati, xususan, u bilan bog‘liq risklarni boshqarishni takomillashtirish yo‘llarini ishlab chiqish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylandi.

Respublikamiz moliya-bank tizimi barqarorligini ta‘minlash, bank aktivlari sifatini oshirish, bank faoliyatidagi risklarni boshqarishni takomillashtirish bo‘yicha muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 6-maydagi 2344-sonli “Tijorat banklarining

moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, bank tizimining moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini yanada oshirish, tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning investitsiyaviy faolligini rag'batlantirish, shuningdek umum qabul qilingan xalqaro me'yor va standartlarga muvofiq bank faoliyatini tashkil etishni yanada yuqori darajaga chiqishini ta'minlash asosiy maqsad etib belgilandi. Shuningdek xalqaro me'yor va standartlarga muvofiq, shu jumladan depozit va kredit siyosati sohasida respublika banklariga nisbatan qo'yilayotgan me'yoriy talablarni yanada takomillashtirish, tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash, omonat va depozitlarning yangi jozibador turlarini joriy qilish yo'li bilan aholi va xo'jalik sub'yektlarining bo'sh pul mablag'larini bank aylanmasiga keng ko'lamda jalb etish chora-tadbirlarini amalga oshirish, yetakchi xorijiy banklar va moliya institutlarida boshqaruvni tashkil etish tizimini chuqur o'rganish asosida tijorat banklarida korporativ boshqaruv usullari, shu jumladan risklarni boshqarish va ichki nazoratni yaxshilash usullarini takomillashtirish, ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng tatbiq etgan holda ko'rsatilayotgan bank xizmatlari ko'lamini kengaytirish va sifatini oshirish, shuningdek bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini kengaytirishni ko'zda tutiladi. Bundan tashqari, ushbu qarorda "... .. bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan tijorat banklariga nisbatan qo'yiladigan me'yoriy talabalarni yanada takomillashtirishni, jumladan, kapitalning yetarliligi va likvidlilik ko'rsatkichi bo'yicha yangi talablarni nazarda tutgan yangi standartlar va tavsiyalar (Bazel-III standartlari) ishlab chiqilganligi va bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining standart va tavsiyalarini (Bazel-III standartlari) 2015-2019- yillarda bosqichma-bosqich joriy etilishini, banklar uyushmasi va tijorat banklari bilan birgalikda bir oy muddatda markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkalarini, keyingi yillarda inflyatsiya darajasi izchil pasayishini, shuningdek boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning barqarorligini hisobga olgan holda tijorat banklari jalb qilayotgan depozitlar foiz stavkalarini

belgilash mexanizmini ishlab chiqish”<sup>2</sup> kabi vazifalar belgilab berilgan.

Risklarni boshqarishning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaganligi va mutaxassislarning yetishmasligi va boshqa bir qator omillar sababli banklar o‘z operatsiyalarini amalga oshirishda bir qator muammolarga duch kelmoqda. Banklarda risklarni tahlil etish va samarali boshqarish bo‘yicha mutaxassislar kam va mavjud mutaxassilarning ham malakalarini zamonga moslab oshirish lozim. Ushbu muammolarning bank faoliyatiga salbiy ta‘sir etish doiralarini aniqlash va bartaraf etish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Umuman olganda, tijorat banklarining faoliyatida risklarni boshqarish va risk darajasini yuqorilab ketishiga yo‘l qo‘ymaslik milliy bank tizimi barqarorligini ta‘minlashning zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi va bitiruv malakaviy ishining dolzarbliigi ham aynan shu muammolarni yechimini hal qilish bilan baholanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari.** Bitiruv malakaviy ishining maqsadi tijorat banklari risklarini boshqarish tizimining nazariy va amaliy jihatlarini yoritib berish, shuningdek uning klassifikatsiyasi, hisoblash usullarini o‘rganish hamda ularni tijorat banklarida joriy qilish va shakllantirish yuzasidan takliflar ishlab chiqishdan iborat. Asosiy maqsaddan kelib chiqqan holda, quyidagilar bitiruv malakaviy ishining vazifalarini tashkil etadi:

- Bank risklari va uni boshqarish masalalarini ko‘rib chiqish;
- Bank risklarini boshqarish va bank risklarini banklar tomonidan baholash mezonlarini o‘rganish;
- Bank risklarini boshqarish bo‘yicha amaliyotni tahlil qilish va ular bo‘yicha yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash va ularni asoslash;
- Bank faoliyatida risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish masalalariga nisbatan xulosa va takliflar berib, istiqbollarni aniqlash.

**Bitiruv malakaviy ishining ob‘yekti va predmeti**–bitiruv malakaviy ishining ob‘yekti bo‘lib, O‘zbekiston bank tizimi va tijorat banklari hisoblansa, uning predmeti respublikamizda bank risklarini boshqarish tizimidagi dolzarb

---

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 6-maydagi 2344-sonli “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori

masalalarini tadqiq qilish, aniq yechimlarini tahlil qilish va uni takomillashtirish bo'yicha xulosalar berish hisoblanadi .

**Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati**-bitiruv malakaviy ishining nazariy asoslari bo'lib, bank risklarni boshqarish sohasidagi yetakchi milliy va xorijiy mutaxassislarning ishlari hisoblanadi. Bitiruv malakaviy ishida olingan xulosalarning amaliyotda qo'llanilishi tijorat banklarida risklarni samarali boshqarish jarayonini takomillashtirish va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi** . Bitiruv malakaviy ishining tuzulishi kirish qismi, uch asosiy bob , xulosa qismi hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

## **I BOB. BANK RISKLARI VA ULARNI BOSHQARISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI**

### **1.1. Bank risklarining bank faoliyatidagi ahamiyati**

Mamlakatimiz iqtisodiyoti va shu jumladan moliya-bank tizimida amalga oshirilgan tub islohotlar, erishilgan yuqori natijalar, albatta, sohadagi barcha masalalar to'liq hal etilganini bildirmaydi. Mamlakatimiz bank tizimini yanada yuqori cho'qqilarga olib chiqish, xalqaro darajada munosib o'rin egallashini ta'minlash maqsadida davlatimiz rahbari tomonidan tizim oldiga yangi va yangi vazifalar qo'yilmoqda.

Hozirgi paytda O'zbekistonda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish jarayoni tijorat banklarining barqaror faoliyat yurituvchi tizimini yaratishni ko'zda tutadi. Chunki tijorat banklari bozor infratuzilmasining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Ularning barqarorligi davlat ahamiyatiga egadir.

Har qanday iqtisodiy faoliyat foyda olishga qaratilganidek, tijorat banklari faoliyatidan ko'zlangan natija ham birinchi navbatda foyda olishdir. U esa albatta risk bilan bog'liq bo'ladi. Shu tufayli tijorat banklari oldida turgan birinchi maqsad—bu risk va foydalilik o'rtasidagi optimal darajaga erishishdir.

O'zbekistonda bozor munosabatlari tamoyillarining amal qilishi tijorat banklaridan o'z faoliyatlari bilan bog'liq risklarni boshqa xo'jalik sub'yektlariga nisbatan ko'proq o'rganishlarini talab etadi. Chunki tijorat banklari o'z faoliyatlari bilan bir tomondan, o'z aksiyadorlari oldida javobgar bo'lsalar, ikkinchi tomondan, o'z mablag'larini ishonib topshirgan va bank xizmatlaridan foydalanayotgan mijozlar oldida majburiyatga egadirlar.

Rivojlangan mamlakatlar banklariga nisbatan MDH davlatlari shu jumladan, respublikamiz banklari faoliyati yanada ko'proq riskka ega bo'lmoqda. Buning asosiy sababi rejali iqtisodiyot davridagi bank faoliyatini bugungi davr talabiga javob beradigan holda qayta tashkil etilmaganligi va yangi turdagi bank operatsiyalarini amalga oshirishda yetarli tajribaning yo'qligi banklar faoliyatidagi risk darajasining yanada oshishiga olib kelmoqda. Shu tufayli bank riski, uning



mohiyati, turlari, kelib chiqishi sabablarini chuqur o'rganish amaliyot uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bank riski iqtisodiy risklarning bir qismini tashkil qilib bank bilan jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarga tayanadi.

Mablag'larning kreditlash tamoyiliga rioya qilingan holda mijozlarga berilishi, banklar ishining ma'lum tamoyillar asosida tashkil qilinishi ular faoliyatining turlari risk bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Bu hol bank riskining ob'yektivligini ifodalasa, bank faoliyatiga boshqa omillarning ta'siri, ularning natijasini hisoblash imkoniyatining mavjudligi va bir turdagi riskning turli sharoitda bo'lishi, uni turlicha qabul qilish va hisoblay olish uning yuzaga kelishining sub'yektiv sabablari hisoblanadi.

Tijorat banklari risklarini boshqarish haqida gapirishdan oldin bank risklarining tub mohiyati, risk to'g'risida jahon va mahalliy iqtisodchi olimlarning fikrlarini ko'rib chiqish muhim, albatta.

Riskning tub mohiyatini ko'rib chiqadigan bo'lsak, «risk» so'zi ispancha so'zdan olingan bo'lib, «suv ostidagi qoya» degan ma'noni bildiradi. Shuning uchun ham risk xavf tug'dirish ehtimoli mavjudligini ifoda qiladi. Taniqli lug'atchi S.N.Ojegovning rus tili lug'atida «risk» bu «muvaffaqiyatga intilish, baxtli hodisa, umid» degan ma'noni anglatadi deyilsa, mashhur Vebstera lug'atida riskga «xavf, zarar yoki talofat ko'rish ehtimoli», deb qaralgan. V.T.Sevruc «risk-bu zarar ko'rish yoki manfaatni qo'ldan chiqarish bilan bog'liq ehtimollar o'lchamidir» degan ta'rif beradi<sup>3</sup>. Professor V.M.Usoskin<sup>4</sup> «Risk doimo noaniqlik bilan birga kelib, oxirgi o'z navbatida oldindan ko'ra bilish qiyin yoki mumkin bo'lmagan voqealar bilan bog'liq bo'ladi» deb izohlaydi. Boshqa mualliflar tomonidan risk bu noaniqlik deb ta'riflanadi. E.S.Stoyanova<sup>5</sup> «Risk-bu rejalashtirilgan variantga nisbatan daromad ola olmaslik yoki zarar ko'rish ehtimolidir» deb ta'rif keltirgan. P.G.Graboviy, S.N.Petrova, S.I.Poltalsevlarning «Риски в современном

---

<sup>3</sup> «Банк рисклари ва кредитлаш» Ш.З.Абдуллаева, «Молия» нашриёти 2002 йил

<sup>4</sup> Усоскин В.М. «Современный коммерческий банк»

<sup>5</sup> Стоянова Е.С. «Финансовый менеджмент», М: Перспектива,

бизнесе»<sup>6</sup> kitobida «Risk-bu korxonada resurslarining bir qismini yo‘qotish yoki daromad o‘laslik, qo‘shimcha xarajatlar qilish xavfidir», deb ta’rif berganlar.

Yuqorida keltirilgan ta’riflarning barchasida risk qandaydir xavf-xatar va zararlar ko‘rishdan iborat ekanligi to‘g‘risida fikr yuritilgan. Riskni ta’riflaganda, uni zarar bilan bog‘liq xavf-xatar, noaniqlik deyish risk tushunchasining mohiyatini to‘la ifodala olmaydi.

Yuqoridagilarga o‘xshagan ta’riflarni mahalliy iqtisodchilarimizning ishlarida ham uchratish mumkin. Undan tashqari, oxirgi yillarda chop qilinayotgan ko‘pgina mualliflarning ishlarida «risk» so‘zini o‘zbekchaga tarjima qilishga harakat qilingan. Natijada hozirgi kunda turli mualliflar tomonidan «risk» termini turlicha nom bilan talqin qilinmoqda. Ba’zi bir iqtisodchilar riskni «tavakkalchilik» deb ifodasalar, boshqalari riskga «xato», «ikkilanish», «noaniqlik», «mavhumiylik» va hokazolar deb ta’rif berish to‘g‘riroq degan xulosa qiladilar.<sup>7</sup>

Har bir faoliyatni amalga oshirishda ikkilanish yoki xavf-xatar bo‘lishi mumkin. Lekin ularni risk mazmunida ifoda qilib bo‘lmaydi.

Xavf-xatar deganda biz oldindan biron salbiy natija beruvchi, yoki biron-bir salbiylikka yoki zarar, talofatga olib keluvchi jarayon mavjudligini bilamiz va biz qo‘rquv, hadiksirash bilan shu voqelikka yondashamiz.

Bank risklari to‘g‘risida iqtisodchi olimlarning fikrlari xilma-xil bo‘lib, ular bu tushunchaning mohiyatini turlicha talqin qilganlar. Buning sababi shundaki, risk keng ma’noli, faoliyatning, jarayonlarning turli bosqichlarida uchrab turuvchi ko‘p qirrali tushunchadir. Bank riskining mohiyati ko‘pgina mahalliy iqtisodchilar tomonidan masalan, «Kredit. 100 savolga–100javob» kitobi muallifi Yo.Abdullaev, T.Boboqulov bank tavakkalchiligi, «kredit xavf-xatari»<sup>8</sup>, «Iqtisodiyot nazariyasi» kitobi muallifi A.O‘lmasov, M.Sharifxo‘jayevlar tomonidan esa «bank xatari»<sup>9</sup> deb yuritiladi. Bank foyda ko‘rishi uchun esa bu xatarni kamaytirishi lozim.

---

<sup>6</sup> П.Г.Грабовый, С.Н.Петрова, С.И.Полталцев «Риски в современном бизнесе»..

<sup>7</sup> «Банк рисклари ва кредитлаш» Ш.З.Абдуллаева, «Молия» нашриёти 2002 йил, 60-бет.

<sup>8</sup> «Кредит. 100 саволга – 100жавоб», Ё.Абдуллаев, Т.Бобоқулов.

<sup>9</sup> «Иқтисодийот назарияси» А.Улмасов, М.Шарифхужаев..

Iqtisodchi olim O.I.Lavrushin «Bank riski ehtimoliy hodisaning qiymat o‘lchovi bo‘lib, u yo‘qotishlarga olib keladi»<sup>10</sup> degan fikrni ilgari suradi.

Rossiyalik yana bir iqtisodchi G.Panova «Risk kutilmagan hodisalar yuzaga kelganida yo‘qotish xavfi yoki imkoniyatidir» deb ta’rif beradi. U o‘z ta’rifi orqali ikki asosiy yo‘nalishni asoslab bermoqchi bo‘ladi. Bular, birinchidan, Professor O.Lavrushinning risk to‘g‘risidagi fikri bilan hamohang bo‘lib, u ham risk bu yo‘qotishlarni ifodalaydi deb uqtirsa, ikkinchidan risk bu kutilmagan hodisa ekanligini ta’kidlagan.

Lekin, «Bank risklari va kreditlash»<sup>11</sup> kitobi muallifi Sh.Z.Abdullayeva G.Panovanning yuqorida riskga berib o‘tgan ta’rifiga qo‘shilmagan va quyidagicha ta’kidlagan: «Bank amaliyotida risk har doim ham kutilmagan hodisa emas. Bank faoliyatining barcha turi risk bilan bog‘liq. Bank shu faoliyat turi yoki operatsiya riskli ekanligini bilib turib, shu operatsiyani amalga oshirishga qaror qiladi yoki amalga oshiradi va u barcha hollarda shu operatsiya natijasida yuqori daromad olishni rejalashtiradi. Shu sababli biz G.Panovanning bank riskiga bergan ta’rifiga to‘la qo‘shila olmaymiz».

«Bank ishi» kitobi muallifi I.R.Toymuxamedov esa bank riskiga quyidagicha ta’rif bergan: «Risk-bu ma’lum maqsadni ko‘zlagan holda olib borilayotgan faoliyat natijasida bo‘lgan ishonchsizlik, ba’zan qoniqarsiz tugashi natijasidagi yo‘qotishlardan iboratdir. Risklar bank faoliyatida o‘lchash mumkin bo‘lgan ko‘rsatkichdir va ular doim bankning bajarayotgan operatsiyalaridan olgan zarariga, yo‘qotgan daromadiga teng bo‘ladi»<sup>12</sup>.

Ba’zi xorijiy iqtisodchi olimlarning shu sohadagi ishlari bilan tanishib, ular tomonidan ham bank risklarining mohiyatiga turli xil ta’rif va tasnif berilganligini ko‘rish mumkin.

Chet ellik olimlar risklarni ta’riflashdan ko‘ra ularning alohida olingan turlarini ko‘rishni afzal hisoblaydilar. Masalan, K.D.Valravenning fikricha g‘arb mamlakatlari banklari ko‘proq likvidlik riski, kredit, portfel, sanoat, mamlakat,

---

<sup>10</sup> O.I. Лаврушин, Н.И. Валенцева Банковские риски: учебное пособие 2009

<sup>11</sup> «Банк рисклари ва кредитлаш» Ш.З.Абдуллаева, «Молия» нашриёти 2002 йил, 88-бет.

<sup>12</sup> «Банк иши» И.Р.Тоймухамедов, 2005йил, 105-бет.

valyuta, foiz riskiga duchor bo'ladilar. «Банковский менеджмент» kitobi muallifi P.S.Rouz risklarga kengroq tushuncha berib, u bank riski oltita asosiy turdagi risk-kredit riski, foyda ololmaslik riski, likvidlik riski, bozor riski, foiz riski, to'lay olmaslik riskidan tashkil topgan bo'lib, bu risklar bank faoliyatida juda muhim, hal qiluvchi risklar hisoblanadi, deydi. Bank uchun ikkinchi darajada bo'lgan risklarga P.Rouz siyosiy riskni, suiste'mol riskini, valyuta riskini kiritadi.

Bank riski – bank faoliyatiga ta'sir qiluvchi iqtisodiy, moliyaviy, ijtimoiy, siyosiy, texnologik ichki va tashqi omillarga bog'liq bo'lgan holatlar natijasida bank faoliyatiga xos bo'lgan moliyaviy zararlar ko'rish va bank likvidligi (bank o'z majburiyatlarini vaqtida bajarish qobiliyati)ni to'liq yoki qisman yo'qotish xavfining mavjudligidir<sup>13</sup>.

Bank riski – deganda tijorat banklari va Markaziy bank faoliyatida moliya bozorida iqtisodiy konyukturaning o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan zarar ko'rish xavfi tushuniladi.

Yuqoridagilarga asoslangan holda, bank riski bank faoliyatini amalga oshirish jarayonida bank mablag'larining bir qismini yo'qotish, yoki daromad ololmaslik sharoitida ijobiy natijaga umid qilib, bank operatsiyalarini (depozit, kredit, investitsiya, valyuta) o'tkazishdir, degan ta'rif kelib chiqadi. Bunda birinchidan, banklarning turli operatsiyalari, xoh u resurslar jalb qilish bilan bog'liq operatsiya bo'lsin, xoh u mablag'larni investitsiya qilish yoki kredit berish, yuqori daromad olish maqsadida xavfli valyuta operatsiyalarini o'tkazish bo'lsin – bankning barcha operatsiyalari uning ma'lum bir yo'qotishlar bilan bog'liq sharoitda ekanligini ta'kidlab o'tish lozim. Ikkinchidan, bank doimo har bir operatsiyasi unga ijobiy natija keltirishga umid qilgan holda bir turdagi operatsiyani amalga oshiradi.

Bank faoliyatida riskning yuzaga kelishi ba'zi bir salmog'i, ta'siri, shakli jihatdan turlicha bo'lgan noaniqliklar bilan bog'liq bo'ladi. Chunki bank faoliyati

---

<sup>13</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Tijorat banklarining bank tavakkalchiliklarini boshqarishiga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi №740 sonli nizomi

tashqi muhitga bog‘liq bo‘lib, unga ob‘yektiv iqtisodiy va siyosiy jarayonlar va ulardagi bo‘ladigan o‘zgarishlar ta‘sir ko‘rsatadi.

Bank faoliyatida risklarning yuzaga kelishining quyidagi sabablari mavjud:

- bozorni yaxshi o‘rganmaslik;
- resurslarni jalb qilish va ularni joylashtirish sohasida ma‘lumotlarning yetarli emasligi;
- kreditlanadigan loyiha, ob‘yekt va mijozlar to‘g‘risida, ularning moliyaviy ahvoli to‘g‘risidagi ma‘lumot va axborotlarning to‘liq emasligi;
- tarmoqlar faoliyati xususiyatining inobatga olinmasligi;
- sub‘yektlar yoki mijozlarning ongi, saviyasi, mablag‘lardan foydalanish bo‘yicha bilimi va maqsadlarining turli xilligi va boshqalar hisoblanadi.

Shu sababli bank risklarining iqtisodiy kategoriya sifatida ta‘rifi uning ob‘yektiv va sub‘yektiv sabab va oqibatlarini o‘zida ifoda qilmog‘i lozim.

Bank faoliyatining risk bilan bog‘liq bo‘lishi xarajatlar, zararlar va yo‘qotishlar kabi kategoriyalarning doimiy uchrab turishini va ular bank amaliyotining kunlik monitoringida bo‘lishini taqozo qiladi. Banklarda xarajatlar, zarar yoki yo‘qotishlar o‘z-o‘zidan risk hisoblanmaydi. Bu tushunchalarning har biri o‘zining mohiyatiga ega.

Bankning depozitlar, jamg‘armalar va boshqa jalb qilingan mablag‘lar bo‘yicha foiz to‘lash, boshqa moliya-kredit institutlaridan jalb qilingan mablag‘lar uchun foizlar to‘lash, bank xodimlari uchun ish haqi to‘lash va boshqa operatsion xarajatlari bilan bog‘liq risklari quyidagi shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin: bozor iqtisodiyotida yuz berayotgan o‘zgarishlar aholi jamg‘armalari bo‘yicha to‘lanadigan foiz stavkalarini oshirishda, kredit resurslarining yetarli emasligi, kredit resurslarini sotib olish qiymatining oshishi, bank xodimlarining ish haqi bilan bog‘liq xarajatlarini oshirish kabilarda o‘z ifodasini topadi. Bank xarajatlarining me‘yordan oshishi, daromad ola olmasligi bankga zarar olib keladi.

Bankning zarar ko‘rishi bank faoliyatida uchraydigan risklarning oldini ololmaslik, undan qocha olmaslik natijasida yuzaga keladi. Bank faoliyatida risklar kelajakda amalga oshiriladigan operatsiyalarni oldindan obdan tahlil qilmaslik,


holatni yaxshi o'rganmaslik, mablag'larni samarali joylashtirmaslik, bozor imkoniyatlariga to'g'ri baho bermaslik, bank faoliyati uchun salbiy natijalarga olib kelishi mumkin bo'lgan boshqa holatlarni oldindan seza olmaslik tufayli yuzaga kelishi mumkin. Zararlarning yuqori bo'lishi banklarda yo'qotishlar bo'lishiga olib keladi. Yo'qotishlar esa bank foydasini kamaytiruvchi omil hisoblanib, u bank faoliyatining risklilik darajasiga bog'liq bo'ladi. Riskning hajmi bank amalga oshiradigan operatsiyalarining risklilik darajasiga, bankning risk sohasidagi strategiyasi sifatiga bog'liq bo'ladi. Bank rahbariyatining foydani ko'paytirishga intilishi ehtimoliy zararlarni imkon qadar kamaytirish bilan birga kechadi. Ushbu ikki maqsad bir-biriga muayyan darajada zid bo'lib, bu bank ma'muriyati va uning omonatchilari manfaatlarining qarama-qarshiligi bilan bog'liqdir. Bank ma'muriyati foydani ko'paytirishga intiladi va qo'shimcha foyda olish uchun risk qilishga tayyor turadi. Omonatchi uchun esa mablag'larining saqlanishi va bankga ishonch masalasi muhimroqdir. Daromadlilik va risk o'rtasidagi maqbul nisbatni saqlab turish bankni boshqarishning eng asosiy va murakkab muammolaridan biridir.

## **1.2. Bank risklarining turlari va xususiyatlari**

Bank risklari iqtisodiy risklar tizimiga kiradi, shuning uchun u tabiatan murakkab tuzilgan. Tizim doirasida ular iqtisodiy risklar ta'sirini sezadilar. Ayrim mualliflar bank riskining bank zararlari paydo bo'lish ehtimoli sifatida ifodalashga qo'shilmaydilar va bu riskni qarorlarni qabul qilishda noaniq axborotlardan foydalanish deb tushunadilar. Bilamizki, har qanday faoliyat turi ma'lum bir turdagi risk bilan bog'liq. Shu jumladan bank tizimida ham bir qator risklar mavjud.

Bank risklarining tasniflanishi. Bank faoliyatida risklarni tasniflash ikki yondashuv bilan ifodalash mumkin: Birinchi yondashuv-bank va bankdan tashqari muhim risklar (umumiy risklar). Ikkinchi yondashuv - bankning xususiyatidan kelib chiquvchi risklar (tarkibiy risklar).

Birinchi yondashuvga ko'ra umumiy bank risklar quyidagicha tasniflanadi:




**1-rasm. Bank risklarining tasniflanishi<sup>14</sup>**

Mamlakat riski-xorijiy kontragentlar o‘z majburiyatlarini iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlar tufayli bajara olmasligi natijasida paydo bo‘ladigan zararlar riski. Mamlakat riski xalqaro bank amaliyotida va bank tashkilotlari, qo‘shma banklar faoliyatida pul oqimi, kredit va hisob operatsiyalari sohasida bo‘lgan risklarga bevosita bog‘liq. Har bir mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy barqarorlikka asoslanib shu mamlakatdagi risk darajasini baholay olish chet el kapitali ishtirokida tashkil topgan qo‘shma banklar va bosh litsenziyaga ega bo‘lgan bank tashkilotlari uchun dolzarbdir. Mamlakat riskini tahlil qilish uchun jahon amaliyotida BERI indeksidan foydalaniladi.

Imidj riski-bankning moliyaviy holati haqidagi salbiy ko‘rinishlar natijasida bank xodimlari sonining qisqarishi tufayli paydo bo‘ladigan zararlar riski.

Xalqaro Bazel qo‘mitasi tomonidan bank risklari quyidagicha tasniflanadi:



**2-rasm. Xalqaro Bazel qo‘mitasi tomonidan Bank risklarining tasniflanishi<sup>15</sup>**

<sup>14</sup> О.И. Лаврушин, Н.И. Валенцева Банковские риски: учебное пособие 2009

<sup>15</sup> www.bis.org sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

O‘z navbatida ularning ichida kredit riskining o‘rni va ahamiyati kuchliroq hisoblanadi. Chunki kredit operatsiyalari bank operatsiyalarining 60-80 % ini tashkil etadi. Bu esa bank faoliyatining ko‘pgina ko‘rsatkichlari aynan kredit operatsiyalariga va ulardan keladigan daromadlarga bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Kredit operatsiyalarini samarali amalga oshirilishini ta‘minlash va ulardan keladigan foizli daromadlarni barqarorligini ta‘minlash uchun berilayotgan va avval berilgan kreditlarning risk ko‘rsatkichi qay darajadiligini to‘g‘ri aniqlay olish hamda kreditning riskka uchrashi yoki uni chetlab o‘tishi va riskni boshqarish chora-tadbirlarini amalda to‘g‘ri qo‘llay olish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bularning barchasi kredit riskini baholash orqali amalga oshiriladi.

Banklar faoliyatini to‘g‘ri tashkil qilish, ularda mavjud risklarni minimallashtirish masalalaridan biri kredit risklari, ularning sifati va darajasini aniqlash va tahlil qilishdan iborat.

Kredit riski deb, qarz oluvchi tomonidan kredit shartnomasi shartlarining bajarilmasligi ya‘ni kredit summasining (qisman yoki to‘liq) va u bo‘yicha foizlarning shartnomada ko‘rsatilgan muddatlarda to‘lanmasligi tushuniladi. Shuning uchun kredit risklarini aniqlash va boshqarish har qanday tijorat bankning rivojlanish va taraqqiy etish maqsadiga erishish uchun ishlatiladigan kurash usullarining ajralmas qismi hisoblanadi.

Kredit riski—bu bank kreditlarining o‘z vaqtida qaytmasligi hamda ularga hisoblangan foizlarni to‘lashda yuzaga keladigan muammolarining yuzaga kelishidir.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki 740-sonli “Tijorat banklarining bank tavakkalchiliklarini boshqarishiga nisbatan qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida” gi nizomiga ko‘ra:

Kredit riski – qarzdorning shartnomada belgilangan shartlar bo‘yicha bank oldidagi o‘z moliyaviy majburiyatlarini qisman yoki to‘liq bajara olmasligi natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo‘qotish bilan bog‘liq tavakkalchilik.



Markaziy bank kredit risklari bilan bog‘liq quyidagi iqtisodiy me‘yorlarni o‘rnatadi:

**1-jadval**

**Bank kredit faoliyatining majburiy me‘yorlari<sup>16</sup>**

<b>Me‘yorlar</b>	<b>Me‘yorni aniqlash</b>	<b>Me‘yorning ruxsat etilgan darajasi foizlarda</b>
Bir qarz oluvchiga yoki unga bog‘liq qarz oluvchilarga risk maksimal hajmi.	Risk koeffitsientlarini o‘z ichiga oluvchi bankning bir qarz oluvchiga kredit talablarining summasining bank o‘z kapitaliga nisbati	Maksimal 25,0
Katta kredit riski hajmi	Katta kreditlar summasining bankning o‘z kapitaliga nisbati	Maksimal 8,00
Bank tomonidan berilgan kafillar, kafolatlar ostidagi kreditlar	Kafil va kafolatlar ostida berilgan kreditlarning bank o‘z mablag‘lariga nisbati	Maksimal 5 (O‘zR)
Bank insayderlari bo‘yicha kredit riskining umumiy hajmi	Bank insayderlariga berilgan kreditlar summasining o‘z kapitaliga nisbati	Maksimal 1

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1998 yil 9-noyabrda qabul qilingan “Tijorat banklari tomonidan aktivlar sifatini tasniflash, ular bo‘yicha yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlar o‘rnini qoplash uchun tashkil etiladigan zaxiralarni shakllantirish va ulardan foydalanish” to‘g‘risidagi 242-sonli nizomida belgilanishicha, ssuda (aktiv)lar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxira-bu bank kredit portfeli (yoki aktivlari) va balansdan tashqari majburiyatlarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yoki mavjud zararlarni qoplash uchun qiymat summasini o‘zida aks ettiradigan bankning barcha kreditlari (yoki

<sup>16</sup> Markaziy bankning “Bir qarzdor yoki o‘zaro dahldor bo‘lgan qarzdorlar guruhiga to‘g‘ri keluvchi tavakkalchilikning eng yuqori darajasi” to‘g‘risidagi 422-sonli nizomi

boshqa aktiv hisobvaraqlari) bo'yicha zararlarni qoplash uchun tashkil etilgan zaxiralar kontr-aktiv hisobvarag'i.

2-jadval

**Tijorat banklari tomonidan aktivlar sifatini tasniflanishi bo'yicha rezervlar hajmi.<sup>17</sup>**

Kreditlarning sifati bo'yicha sinflari	Ehtimoliy yo'qotishlar bo'yicha zaxiralar ajratish me'yori
Yaxshi	0
Standart	10 %
Substandart	25 %
Shubhali	50 %
Umidsiz	100 %

Bozor riski-bankning hosilaviy moliyaviy instrumentlari, savdo portfelining moliyaviy instrumentlar bozor qiymatining, shuningdek xorijiy valyuta va qimmatbaho metallar kursi o'zgarishi natijasida bankda zararlarning vujudga kelishi riski deb qaraladi. Bazel qo'mitasi bozor riskini bozor baholarining tebranishiga asoslangan bank balansi va balansdan tashqari moddalari bo'yicha yo'qotish riski deb ta'riflaydi. Bozor riski o'z ichiga fond bozori, valyuta va foiz risklarini oladi:

- fond bozorlari riski-fond bozorlarida savdo portfeli va hosilaviy moliyaviy instrumentlarning bozor narxining salbiy o'zgarishi natijasida vujudga keladigan risk;
- valyuta riski - xorijiy valyutalar va qimmatbaho metallar kursining yoki ular bo'yicha ochiq pozitsiyalarning o'zgarishi natijasida paydo bo'ladigan risk. Valyuta risklariga majburiy me'yorlar ham o'rnatiladi: operatsion kun oxirida barcha valyutalar bo'yicha uzun (qisqa) ochiq pozitsiyalar bank o'z

<sup>17</sup> Markaziy bankning "Tijorat banklari tomonidan aktivlar sifatini tasniflash, ular bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar o'rnini qoplash uchun tashkil etiladigan zaxiralarni shakllantirish va ulardan foydalanish" to'g'risidagi 242-sonli nizomi

kapitalining 20% idan oshmasligi kerak va operatsion kun oxirida har bir xorijiy valyutalar bo'yicha uzun (qisqa) ochiq pozitsiyalar bank o'z kapitalining 10% idan oshmasligi kerak.

- foiz riski-bankning aktiv va passivlari bo'yicha foiz stavkalarining salbiy o'zgarishi natijasida moliyaviy yo'qotishlarning paydo bo'lish riski.

Likvidlilik riski–bankning o'z moliyaviy majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajara olmasligi natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotish bilan bog'liq tavakkalchilik<sup>18</sup>. Bankning likvidlilik tavakkalchiligi asosan, aktiv va passivlarning so'ndirilish muddatlarining o'zaro nomuvofiqligi oqibatida yuzaga keladi. Bankning likvidlilik tavakkalchiligini boshqarish «Tijorat bankining likvidlilikini boshqarishga bo'lgan talablar to'g'risida»gi Nizom (№421, 1998 yil 2 dekabr) talablari asosida amalga oshiriladi. Likvidlilik riski quyidagicha vujudga keladi:

- bankning moliyaviy aktivlari va moliyaviy passivlari nomutanosibligi;
- bank o'z majburiyatlarini zarur hollarda tez muddatda bajarilishi.

#### Likvidlilik me'yori (2015-yil 1-yanvargacha)<sup>19</sup>

Me'yorlar	Me'yorni aniqlash	Me'yorning ruxsat etilgan darajasi, foizlarda
Joriy likvidlilik N3	Bankning likvid aktivlari (yuqori likvidliliklari bilan birga) summasining 30 kungacha bo'lgan talab qilib olunguncha hisobraqamdagi majburiyatlar summasiga nisbati	30

Bankda likvidlilikni saqlash uchun 2015-yil 1-yanvardan boshlab quyidagi majburiy normativ o'rnatildi:

<sup>18</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining «Tijorat banklarining bank tavakkalchiliklarini boshqarishiga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risida»gi №740 sonli nizomi

<sup>19</sup> Markaziy bankning «Tijorat bankining likvidlilikini boshqarishga bo'lgan talablar to'g'risida»gi 421-sonli nizomi

## Likvidlilikni qoplash ko'rsatkichi - Liquidity Coverage Ratio<sup>20</sup> (LCR)

LCR=	$(\text{yuqori sifatli aktivlar})/(\text{30 kun mobaynida sof pul chiqimlari}) \geq 100\%$
------	--------------------------------------------------------------------------------------------

Operatsion risk-quyidagi holatlar natijasida paydo bo'ladigan zararlar riski:

- amaldagi qonunchilik talablari va bank faoliyati tavsifiga ko'ra bank operatsiyalarining o'tkazilish tartibining buzilishi;
- bank xodimlari tomonidan bank operatsiyalari o'tkazilish tartibining buzilishi;
- bank foydalanadigan texnik va axborot tizimlarining to'liq shakllanmaganligi.

Bazel qo'mitasi operatsion riskni ichki jarayonlar va tizimlarning nomuvofiqligi, xodimlarning mas'uliyatsizligi yoki boshqa tashqi omillar hisobiga yuzaga keladigan xavf-xatar deb baholaydi. Mazkur tushuncha bank va uning xodimlari tomonidan qonunchilikka, axloqiy me'yorlarga, shartnoma majburiyatlariga rioya etmaslik hamda sud jarayonining qo'zg'atilishi tufayli yuzaga keladigan huquqiy riskni ham ko'zda tutadi. Operatsion risk turlariga quyidagilardan iborat:

- Ichki bo'hton va firibgarlik, ya'ni dilerlar tomonidan bank holati bo'yicha noto'g'ri ma'lumotlarning berilishi, xodimlar tomonidan amalga oshirilgan o'g'irliklar, xodimlarga berilgan pora evaziga kredit hujjatlarini soxtalashtirish va boshqalar;
- Tashqi bo'hton va firibgarlik, ya'ni hujjatlarni o'g'irlash va soxtalashtirish, kompyuter aloqalariga ruxsatsiz kirish, kredit olish uchun noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etish;
- Mijozlar, xizmatlar va biznes yuritish standartlariga oid ma'lumotlardan ruxsatsiz foydalanish, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va hisobvaraqlardan foydalangan holda firibgarlik;

<sup>20</sup> Markaziy bankning «Tijorat bankining likvidligini boshqarishga bo'lgan talablar to'g'risida»gi 421-sonli nizomi

- Moddiy aktivlarga zarar yetkazish, ya'ni qo'poruvchilik, terrorizm, yer qimirlashi va boshqa tabiiy ofatlar;
- Ishdagi, axborot va aloqa tizimidagi xatolik va uzilishlar, ya'ni texnikaning ishlamay qolishi, telekommunikatsiya muammolari va dasturdagi uzilishlar;
- Hujjatlarni rasmiylashtirish, operatsiyalar o'tkazish va jarayonlarni boshqarish, ya'ni ma'lumotlarni kiritishdagi xatoliklar, huquqiy hujjatlarning yetishmasligi, kredit ta'minotiga tegishli xatoliklar va boshqalar.

Operatsion risklar bilan ishlash usullari va darajasi turli banklarda risk darajasi va turi, bank operatsiyalarining hajmi va turiga bog'liq ravishda turlicha bo'ladi. Operatsion riskni to'g'ri boshqarish uchun tijorat bankida tegishli kunlik nazorat va ma'lumotlarni jamlash jarayoni tashkil etilgan bo'lishi darkor. Markaziy bank tijorat banklaridan ular darajasiga, risklar miqdori va turiga, banklar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarning murakkabligiga mos operatsion risklarni baholash va boshqarish mexanizmini yaratilishini talab qilishga haqlidir. Bundan tashqari, Markaziy bank tijorat banklari tomonidan operatsion risklar bo'yicha qoida va talablarga rioya etilishi yuzasidan doimiy va alohida nazoratni olib borishi lozim.

Huquqiy risk-quyidagi holatlar natijasida paydo bo'ladigan zararlar riski:

1. bank tomonidan tuzilgan shartnomalar va huquqiy me'yorlar talablariga rioya qilmaslik;
2. faoliyat davomida huquqiy xatolarga yo'l qo'yish;
3. huquqiy tizimning noaniqligi.

Transformatsiya riski bu–banklar tomonidan berilgan kreditlar bilan ularning manbalarining muddati o'rtasida nomuvofiqlikni yuzaga kelishidir.

Biznesda obro'-e'tiborni yo'qotish(reputatsiya) riski– bankning moliyaviy barqarorligi to'g'risida omma ichida salbiy tasavvur yuzaga kelishi sababli,

mijozlar sonining kamayishi, ko‘rsatilayotgan xizmat sifatining tushishi natijasida, bankda zararlar yuzaga kelishi riski<sup>21</sup>;

Ikkinchi yondashuvga ko‘ra tarkibiy bank risklari quyidagicha tasniflanadi:

1. Operatsion xarajatlar o‘shish riski:
  - foiz xarajatlarning o‘shish riski;
  - foizsiz xarajatlarning o‘shish riski.
2. Nooperatsion xarajatlar o‘shish riski.
3. Passiv operatsiyalardan keladigan daromadlarning qisqarishi riski.
4. Aktiv operatsiyalardan keladigan daromadlarning qisqarishi:
  - operatsion daromadlar (foizli va foizsiz) ning qisqarishi riski;
  - nooperatsion daromadlarning kamayish riski.
5. Aktivlar qadrsizlanishi va yo‘qolishi riski.
6. Boy berilgan foyda riski.
7. Daromadlarning qisqarishi (olinmagan) riski.
8. Zararlarning ko‘payishi riski.
9. Kapitalning xavfli darajasiga tushish riski.
10. To‘lovga layoqatsiz riski.

Bank xarajatlarni o‘shishini ko‘rsatuvchi moliyaviy risklar quyidagicha tasniflanadi:

- operatsion xarajatlarning (bank faoliyatining ta‘minlovchi xarajatlar) o‘shishi;
- foiz xarajatlarning o‘shish riski, ya‘ni jalb qilingan mablag‘lar (olingan kreditlar, qarzlar, qo‘yilmalar, depozitlar) bo‘yicha to‘lanadigan foizlar;
- foizsiz xarajatlarning o‘shish riski, ya‘ni xodimlarga moddiy va ish haqi xarajatlari, boshqaruv apparatini saqlash xarajatlari, komission to‘lovlar, to‘langan dividendlar, kreditlar va boshqa operatsiyalar bo‘yicha zararlarni qoplash maqsadida yaratiladigan zaxiralar bilan bog‘liq xarajatlar;
- kooperatsion xarajatlarning o‘shish riski, jumladan:

---

<sup>21</sup> O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Tijorat banklarining bank tavakkalchiliklarini boshqarishiga nisbatan qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi №740 sonli nizomi

- ❖ soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning ortiqcha to'lashdagi yo'qotishlar riski;
- ❖ penya va jarimalarni to'lashdagi zararlar riski;
- ❖ mulkni sotishdagi zararlar riski;
- ❖ bankning ayrim turdagi aktivlarini qayta baholash jarayonida salbiy kurs farqidan keladigan zararlar riski.

Daromadlarni qisqartirishni ko'rsatuvchi moliyaviy risklar bankning to'lov qobiliyatiga, foydaliligiga, kapitaliga va likvidlik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ular quyidagicha tasniflanadi:

- passiv operatsiyalar bo'yicha keladigan daromadlarning qisqarish riski, jumladan hisobraqamlarni yopish, yuritish, ochish, naqd pullarni berish, mijoz hisobvarag'idan ko'chirmalar berishda oladigan komission daromadlar;
- aktiv operatsiyalar bo'yicha keladigan daromadlarning qisqarishi:
  - ❖ operatsion daromadlarning qisqarish riski, xususan, foizli daromadlarning, jumladan berilgan kreditlar va qarzlarni, boshqa banklarga depozit qo'yilmalar, lizing va qarz qimmatli qog'ozlar bo'yicha;
  - ❖ foizsiz daromadlar qisqarish riski, jumladan, bank tomonidan olingan valyuta ayirboshlash operatsiyalaridan, trust operatsiyalaridan, yuridik shaxslar faoliyatida qatnashishdan daromadlar;
  - ❖ nooperatsion daromadlar qisqarish riski, jumladan, ko'rsatilgan axborot va maslahat xizmatlaridan, mulkni sotishdan, garovni sotishdan va qimmatli qog'ozlarni qayta baholash jarayonida ijobiy kurslardan keladigan daromadlar.

Moliyaviy risklar quyidagi tarzda aniqlanadi: banklar, shu jumladan qo'shma banklar jalb qilingan mablag'lari qanchalik yuqori bo'lsa, aksiyadorlar va muassislar uchun shunchalik risk darajasi yuqori bo'ladi. Ayni paytda jalb qilingan mablag'lar moliyalashtirishning muhim va foydali manbaidir, chunki u bankning qimmatli qog'ozlarini qo'shimcha tirajlarini chiqarish va sotishdan ko'ra kamroq

xarajat qilishga olib keladi. Qarz oluvchilar uchun belgilangan me'yorlarga binoan, o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'lar o'rtasidagi nisbat, ya'ni qarzdorlik koeffitsienti (Qk) 0,2-0,3 doirasida tebranib turadi.

### **1.3. Bank risklarini boshqarish va uning nazariy asoslari**

Bank faoliyatini risksiz tasavvur qilish mumkin emas. Albatta risk har qanday biznesda ham bo'ladi. Lekin faoliyat xususiyatidan kelib chiqiladigan bo'lsa, bank biznesi uchun risk albatta va darhol yuz beradigan jarayon hasoblanadi. Shu tufayli, bu yerda gap bank faoliyatida riskdan umuman qochish to'g'risida emas, balki uni oldindan ko'ra bilish va minimal darajaga tushirish haqida boradi. Riskni boshqarish aksariyat hollarda bankning o'z mablag'larining bir qismini yo'qotish "xavfi", daromad ololmay qolish yoki moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish natijasida qo'shimcha xarajatlarga yo'l qo'yib bo'lsada jarayonni ijobiy natija bilan yakunlashni maqsad qilib qo'yadi.

Bank faoliyati jamg'arma egalariga foizlar to'lash, boshqa moliya-kredit institutlaridan xarid qilingan kredit resurslariga to'lovlar, bank xizmatchilari ish haqqisi uchun mablag'lar ajratish va boshqa operatsion xarajatlarga bevosita bog'liqdir. Bu yerda risk jamg'armalarga bo'lgan foizlarning, kredit resurslari qiymatining, ish haqi to'lovlarining oshishi muhim bo'lib qolganda paydo bo'ladi.

Risklarni aniqlab uni boshqara olmaslik natijasida yuzaga keluvchi to'liq daromad ololmaslik yoki kutilgandan ko'ra ko'proq xarajat qilib yuborishlik riski bo'lg'usi operatsiyalarning, hisobotlarning yetarli tahlil qilinmaganligi, vaziyatni to'g'ri baholanmaganligi yoki ko'zda tutilmagan holatning paydo bo'lishi natijasida yuz beradi. Hozirgi vaqtda ixtisoslashgan, tarmoq va universal banklarning mavjudligi banklar uchun bank riski ko'lamlarini har xillashtiradi. Ixtisoslashgan banklarning bir soha, bir tarmoqni kreditlashga moslashuvi ular faoliyatida risklarning yuqori bo'lishiga olib kelishi mumkin. Bu holat bank riskini boshqarishning asosiy usullarini jumladan, hukumat kafolatini olish, garov huquqini joriy qilish va boshqalarni talab qiladi.



Bank riskini boshqarish tizimi riskning yuzaga kelishini oldindan xomcho't qilish, risk tufayli yuzaga keladigan holatlarga yo'l qo'ymaslik yoki ularning ta'sirini kamaytirish borasida chora-tadbirlar, usullar yig'indisini o'z ichiga oladi. Bank riskini boshqarish tizimi ikki asosiy kichik tizim: boshqarish ob'yekti va boshqarish sub'yektidan iborat bo'ladi.

Riskni boshqarish tizimida boshqarish ob'yekti-bu bank faoliyatidagi risk, bank bilan mijoz o'rtasidagi yoki kreditor bilan qarz oluvchi o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar, bankning mablag'larini jalb qilish va ularni joylashtirish bilan bog'liq operatsiyalarda yuzaga keluvchi risklar bo'lsa, risklarni boshqarish tizimining sub'yekti bu riskda o'z ta'sirini o'tkaza oluvchi guruh, tadbirkor, bank, risk bo'yicha menejerlar hisoblanadi<sup>22</sup>.

Bank riskini boshqarish banklar faoliyatini chuqur bilish, ular bajaradigan operatsiyalarining samaradorligini aniqlay olish bankning kredit, investitsiya, valyuta siyosati va boshqa faoliyat turlari bo'yicha optimal qarorlar qabul qilishga erishish, mijozlarning xo'jalik faoliyati va ularning moliyaviy ahvoli tarmoqlar faoliyatining xususiyatlarini o'z ichiga oladi.

Bank faoliyatidagi tavakkalchiliklarni boshqarish quyidagi asosiy maqsadlarda tashkil etiladi:

- bank omonatchilari va kreditorlari, aksiyadorlari manfaatlarini himoya qilish;
- bank tavakkalchiliklarini kamaytirish, bartaraf etish va oldini olish;
- bank faoliyatining yetarli darajadagi barqarorligini ta'minlash.

Bank riskini boshqarishda bank boshqaruvchisining asosiy vazifasi bank faoliyatini olib borishda yuzaga keladigan daromad bilan unda yuzaga keluvchi risklar o'rtasidagi optimal variantini topishdan iborat.

Tijorat banklarida riskni boshqarish strategiyasini ishlab chiqishda korxonalaridagi foydalanilmagan rezervlarni baholash va bank xizmatining asosiy yo'nalishini aniqlab olish uchun o'rtacha tarmoq riskining hajmini hisobga olish

---

<sup>22</sup> Р.Г.Одъхова Банковское дело: управление в современном банке 2009

zarur. Hozirgi kunda tijorat banklari tomonidan kreditlash jarayonini olib borishda tarmoq risklari deyarli inobatga olinmaydi.

Tarmoq riski kredit riski bilan bog‘liq bo‘lib, unga bevosita ta’sir qiladi. Shunga asoslangan bank tarmoq siyosatini tuzishda nafaqat mijozlar, balki sohalar to‘g‘risida keng axborotlarga ega bo‘lishi, tarmoq riskini baholashda quyidagilarni hisobga olishi kerak:

- aniq davr mobaynida ushbu tarmoqning hamda qo‘shimcha sohalarning faoliyati;
- ularning mamlakat iqtisodiyotiga nisbatan barqarorligi;
- turli xil firmalarning bir yoki boshqa sohadagi faoliyatlari natijalariga sezilarli mos kelmasliklarning mavjudligi va boshqalar.

Tarmoq riskini baholovchi ko‘rsatkichlaridan biri biror iqtisodiy faoliyat natijalariga nisbatan soha faoliyati natijasining o‘zgarishidir. Bu xil risk xalqaro amaliyotda «beta» harfi bilan belgilanadi. Beta ko‘rsatkichi birga teng bo‘lsa, bu bozor iqtisodiyoti uchun me’yor hisoblanadi. Ko‘rsatkich birdan kam bo‘lsa u nisbatan barqaror soha bo‘ladi va katta o‘zgarishlar bo‘lmaydi. Beta ko‘rsatkichi birdan katta bo‘lganda tarmoqda katta o‘zgarishlar mavjudligi kuzatiladi. Shu sababli «beta» ko‘rsatkichi qancha yuqori bo‘lsa, tarmoq riski shunchalik kuchli bo‘ladi. «Beta» ko‘rsatkichini hisoblash uchun keng axborotlar kerak. Odatda tarmoq riskini tahlil qilishda ushbu ko‘rsatkichni hisoblash sohaning kelajakdagi ishi bilan bog‘liq holati maxsus agentliklar tomonidan amalga oshirilgan regressiv tahlil bilan solishtiriladi.

Xalqaro amaliyotda tarmoq riski uchun axborotlar ushbu axborotlarga ega bo‘lgan tashkilotlardan olinadi. Birok ko‘rib o‘tilgan analitik yondashuv bo‘lmasa, unda muqobil sifatida:

- sohaning hayotiy sikli bosqichi;
- sohada ichki raqobat muhiti kabi maxsus omillar ko‘rib chiqiladi.

Sanoatni olib qaraydigan bo‘lsak, unda hayotiylik sikli bir nechta bosqichga bo‘linadi. Kelajak va hozirgi rejada xususiyatiga ega bo‘lgan risklarning o‘rnini aniqlash muhimdir.

Raqobatning ichki muhiti biror bir tarmoqqa qarashli firmaning barqarorligi haqidagi axborotning qo‘shimcha manbai hisoblanadi. Raqobatning soha ish muhitini baholashda baho va nobahoviy raqobatning darajasi, tarmoqqa kirishning yengilligi yoki murakkabligi, baho bo‘yicha raqobatdosh o‘rin bosuvchilarning yetishmasligi yoki borligi, sotib oluvchining bozor qobiliyati, siyosiy va ijtimoiy muhit kabi axborotlar qo‘llaniladi.

Bank mijozlarining tarkibiy tuzilishi bank riski va uning darajasini hisoblash usulini aniqlab berishi mumkin. Kichik qarzdorning faoliyati yirik qarzdornikiga nisbatan bozor iqtisodiyotining kutilmagan vaziyatlariga ko‘proq bog‘liq bo‘ladi. Shu bilan bir vaqtda, bir mijozga yoki biri bilan aloqador qarzdorlar guruhiga berilgan yirik kreditlar ko‘pincha banklarning inqiroziga sabab bo‘ladi. Bank riski darajasini boshqarishda bank o‘tkazaladigan operatsiyalarning kafolatlanganligi, sug‘urtalanganligi va boshqa tartibga solish usullaridan foydalanganligiga qarab to‘la, o‘rtacha va past risklar yuzaga kelishini hisobga olish lozim. Bozor iqtisodiyoti sharoitida risklarni vaqt bo‘yicha taqsimlash muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Banklarning asosiy operatsiyalari o‘tgan va hozirgi risklarga, boshqalari esa kelgusi risklarga tortilgan bo‘ladi. Hozirgi risklarga kafolat berish bo‘yicha operatsiyalar, hujjatlashtirilgan akkreditiv operatsiyalari, regress huquqi bilan aktivlarni sotish va boshqalar kiradi. Lekin kafolatning o‘zini ma’lum muddatdan so‘ng to‘lab berish, bank krediti hisobidan akkreditivni amalga oshirish ehtimolligi shu operatsiyalarni kelgusi riskga tortadi. Bank riskini boshqarish jarayonida e’tiborga molik soha risklarning hisobga olish xususiyatidan kelib chiqqan holda balans operatsiyalari bo‘yicha va balansdan tashqari operatsiyalar bo‘yicha risklarga bo‘linishidir.

Bank risklarini boshqarish strategiyasini ishlab chiqishda risklarning quyidagi asosiy turlariga e’tiborni jalb qilish lozim:

- ❖ Depozitlarni shakllantirish riski;
- ❖ Yangi faoliyat turi riski;
- ❖ Lizing kelishuvi riski;
- ❖ Qarzdorning o‘z moliyaviy majburiyatlari yuzasidan bajarmagan faoliyat

bilan bog‘liq kredit riski;

- ❖ Bozor foiz stavkalarining tebranish ehtimoli bilan bog‘liq foiz risklari;
- ❖ Qimmatli qog‘ozlarning qadrsizlanish ehtimoli bilan bog‘liq bozor riski;
- ❖ Valyuta kurslari tebranishi bilan bog‘liq valyuta risklari. Bank bunday riskka chet el valyutasida turli xildagi operatsiyalarni o‘tkazish va valyuta oldi-sotdisi, valyutaviy kreditlar berish natijasida duch keladi.

Bank risklarini boshqarish strategiyasi bankning barcha imkoniyatlaridan to‘la foydalanish, bankni rivojlantirish istiqbollari belgilab beradi va bank risklarining oldini olib banklar faoliyatining samaradorligini oshirishga imkon yaratadi. Risklarni boshqarish strategiyasining maqsadi va vazifalari ko‘p darajada bank ishlaydigan tashqi iqtisodiy muhitga bog‘liq. Oxirgi yillarda bank faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi tashqi iqtisodiy muhit sifatida inflyatsiyaning mavjudligi, banklar va ularning shu’balarining sifatli faoliyat ko‘rsatishlari, banklar faoliyatining Markaziy bank tomonidan muvofiqlashtirilib borilishi, banklar yangi xizmatlarining yuzaga kelishi, banklar o‘rtasidagi raqobatning yuzaga kelishi va yirik banklar tomonidan mayda kredit muassasalarining qamrab olinishi, xo‘jalik sub’yektlari faoliyatining o‘zgarishi, bozor munosabatlariga moslashuvi natijasida aylanma kapitallarga bo‘lgan ehtiyojning o‘sishi natijasida bankning kredit resurslariga bo‘lgan talabi ortib borishi tufayli faqat bank risklarini o‘z vaqtida sezish va boshqarish yo‘li bilan bank faoliyatining ijobiylikiga erishish mumkin.

Bank risklarini boshqarish strategiyasini ishlab chiqish uchun bank faoliyatini chuqur bilish, bank bajaradigan operatsiyalarning samaradorligini aniqlay bilish, bankning kredit, investitsiya, valyuta siyosati va boshqa faoliyatlari bo‘yicha optimal qarorlar qabul qilishga erishish, mijozlarning xo‘jalik faoliyati va ularning moliyaviy ahvoli, tarmoqlar faoliyatining xususiyatlari va boshqalarni bilish lozim.

Bank risklarini boshqarishni samarali tashkil etish ularni muayyan belgilari bo‘yicha aniq guruhlariga bo‘lish bilan bog‘liq. Risklarning ilmiy asoslangan tasnifi ularni har birining umumiy tizimdagi o‘rnini belgilash, ularni boshqarishning samarali usullarini qo‘llash imkonini beradi. Quyidagi jadvalda bank risklarini

boshqarish jarayonining vazifalarini belgilovchi to‘rtta asosiy bosqichi ko‘rsatilgan:

3-jadval


**Bank risklarini boshqarish jarayonining vazifalarini  
belgilovchi to‘rtta asosiy bosqich<sup>23</sup>**

<b>Bank risklarini tahlil qilish va baholash.</b>	<b>Risk miqdorini aniqlash.</b>	<b>Bank risklarini boshqarish.</b>	<b>Bank risklarini boshqarish.</b>
Bank axborot manbalaridan kredit risklarini va ular o‘rtasidagi bog‘liqliklarni o‘rganib chiqish hamda ularni nazorat qiladigan risklarga ajratish kerak	Riskning miqdoriy ko‘rsatkichini aniqlash ehtimoliy yo‘qotishlar miqdorini aniqlashga va aktiv boshqarish instrumentlari vositasida risk darajasini shakllantirishga imkoniyat yaratadi.	Boshqariladigan risklar va ularning miqdori aniqlanganidan keyin, kredit risklarini boshqarish metodologiyasi va strategiyasi ishlab chiqilishi zarur.	Risklarni boshqarish bo‘yicha tadbirlar natijalari nazorat ostida bo‘lishi lozim.

Albatta, bank risklarini boshqarishning bu bosqichlarida bank risklarini tahlil qilish va baholashda asosiy vazifa bank axborot manbalaridan asosan kredit bilan bog‘liq risklarni o‘rganib chiqqan holda, risklarni miqdoriy aniqlash va undagi ehtimoliy yo‘qotishlar miqdorini aniqlab, bank risklarini boshqarish bosqichiga o‘tagan holda unga risklarni boshqarish metodologiyasi va strategiyasini ishlab chiqish, shuningdek ularni amalga oshirish bo‘yicha nazoratni kuchaytirish vazifalarini o‘zida ifoda etishi lozim

Risklarni boshqarish daromad bilan risk o‘rtasidagi optimal nisbatni topish, mavjud riskni minimallashtirishni o‘z ichiga oladi. Yuqoridagilarga asosan biz riskni boshqarishning bosqichlarini quyidagi rasm orqali ko‘rishimiz mumkin.

<sup>23</sup> О.И. Лаврушин, Н.И. Валенцева Банковские риски: учебное пособие 2009



**3-rasm. Riskni boshqarish jarayoni bosqichlari<sup>24</sup>**

Risklarni bu bosqichlar bo'yicha boshqarish ma'lum nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lishni, xarajatlarni talab qiluvchi jarayondir. Shu bilan birga riskni inkor qilish juda salbiy hollarga olib kelishi mumkin. Risklarni boshqarishda ssudalar bo'yicha to'lovsizlik riskidan himoyalanih uchun kredit portfelini diversifikatsiyalash usulidan foydalanish yuqori samara berishi mumkin.


Albatta yuqori darajada daromadli faoliyat ko'rsatishni ta'minlash masalasi bankirlarni juda qiziqtiradi, ammo bir paytning o'zida ular bank operatsiyalarining riskli ekanligini e'tirof qilishadi. Yaqin va uzoq perspektivada bankning daromadliligini ta'minlovchi eng asosiy omillardan biri bank risklarini samarali boshqarish bo'lib qoladi. Ssudalar va boshqa bank operatsiyalari bilan bog'liq

<sup>24</sup> В.М. Костюченко Н. Анализ кредитных рисков 2010

muammolarning ko‘payib borishi, bankirlardan bank risklarini aniqlash, baholash va nazorat qilish imkoniyatlarini alohida e‘tibor bilan o‘rganishni talab qilmoqda.

Bank risklarini boshqarishni samarali tashkil etish ularni muayyan belgilar bo‘yicha aniq guruhlariga bo‘lish bilan bog‘liq. Risklarning ilmiy asoslangan tasnifi ularni har birining umumiy tizimdagi o‘rnini belgilash, ularni boshqarishning samarali usullarini qo‘llash imkonini beradi.

Tijorat banklar tomonidan foydalilik darajalarining barqarorligini ta‘minlashga qaratilgan bank risklarining ilmiy asosda boshqarilishi bir necha bosqichlardan iborat deb qarab, quyidagi rasm orqali ifoda etish mumkin



#### **4-rasm. Risklarni ilmiy asosda boshqarishining bosqichlari<sup>25</sup>**

Rasmdan ko‘rinib turibdiki, boshqarishning birlamchi bosqichi bo‘lib bank riskini aniqlash jarayoni hisoblanadi. Ushbu bosqichda tijorat banki boshqaruvi tomonidan bank riski o‘rganib chiqilib, chegaralari belgilanadi va nazoratga olinadi.

<sup>25</sup> О.И. Лаврушин, Н.И. Валенцева Банковские риски: учебное пособие 2009

Bank riskini boshqarish jarayonining ikkinchi bosqichida bank riski son va sifat jihatdan baholanadi. Bank riskini sifat jihatdan baholanishi uning darajasini belgilanishidan iborat bo'ladi. Ushbu riskning qiymatdagi ifodasi uning son jihatdan baholanish jarayoni mahsuli bo'lib hisoblanadi.

Bank risklarini baholashning zamonaviy usullari bor bo'lib ular quyidagi usullar yordamida baholanadi:

1. Statistik usul;
2. Risk qiymati VaR (Value at Risk) konsepsiyasi;
3. Tarixiy modellashtirish usuli (historical simulation);
4. Monte-Karlo statistik tajribasi (Monte-Carlo simulation);
5. Senariy tahlili (stress-test asosida);
6. Ekspertlar bahosi usuli.

Statistik usul-bank uchun risk hududini aniqlash imkonini beradi. Riskni statistik usul tahlili miqdoriy usullar qatoriga kiradi. Statistik usulning mohiyati shundan iboratki, u yoki bu sohada mavjud bo'lgan foyda va zararlar statistikasi o'rganiladi, u yoki bu iqtisodiy hosilaning hajmi va olish davri aniqlanadi hamda shularga ko'ra kelgusi davr uchun eng istiqbolli ehtimol belgilanadi. Statistik usulda quyidagi instrumentlar qo'llaniladi:

- variatsiya;
- o'rtacha kvadratik chetlanish;
- dispersiya.

Risk qiymati konsepsiyasi. Hozirgi kunda banklar kredit, bozor va likvidlilik risklarini aniq ehtimol bilan hisoblanadigan kutilayotgan natijalardan maksimal farqlanish (olinishi mumkin bo'lgan natijalarning o'zgaruvchanlik darajasi kutilayotgan natijaning o'rtacha miqdoridan qay darajada farq qilinishini ko'rsatadi) tahliliga asoslangan VaR usuli yordamida aniqlaydilar.

Risk qiymati olingan ehtimol davrida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan aktivlardagi portfollarning o'zgarishidan keladigan zararlarni aks ettiradi. Qisqacha aytganda, yo'qotishlar  $x\%$  ehtimollik bilan  $n$  kun davomida  $u$  so'mdan oshib ketmasligiga ishonch hosil qilinadi. Masalan, risk qiymati 1 kunlik uchun 95% lik



ishonch intervali bilan 100 ming pul birligini tashkil etadi, ya'ni bir kun davomidagi yo'qotishlar 95% lik ehtimol bilan 100 ming pul birligidan oshmaydi.

Xalqaro bank-moliya tashkilotlari (Bazel Qo'mitasi) bank kapitalining yetarligini baholash uchun 99% ehtimol darajasini 10 kunga teng qilib o'rnatgan. JP Morgan kunlik balansini risk qiymatida 95% ehtimol darajasi bilan e'lon qiladi.

Risk qiymati hajmini aniqlash uchun tanlangan interval vaqti davomida foyda va zararlarning ehtimollik taqsimlanishini bilish kerak. Risk qiymatini aniqlashda ishonch intervali va vaqtinchalik gorizont parametrlari yordamida beradi. Qoidaga ko'ra, yo'qotishlar ehtimoli 1%, 2,5% va 5% (99%, 97,5% va 95% ishonch intervaliga mos ravishda) darajada o'rnatiladi. Shuni hisobga olish kerakki, ishonch intervali ko'rsatkichi o'sishi bilan risk qiymati o'sib boradi: 1% lik ehtimol bilan paydo bo'lgan yo'qotishlar, 5% lik ehtimol bilan paydo bo'lgan yo'qotishlardan yuqori bo'ladi. Vaqtinchalik gorizontni tanlash mazkur aktivlar bilan necha marta bitim tuzilishiga bog'liq. Risk qiymati konsepsiyasiga ko'ra vaqtinchalik gorizont davomida portfel tarkibi va holati o'zgarishdan qoladi. Portfelni har yangilashda risk qiymatiga tuzatish kiritish kerak.

Tarixiy modellashtirish usuli. Ushbu usul imitatsion usullar qatoriga kiradi. Unga ko'ra, portfeldagi instrumentlardan qiymati, uning qiymatiga ta'sir qiluvchi bozor narxlarida va foiz stavkalarida ifodalanishi kerak. Shuningdek, joriy portfelga o'tgan yilda n davr davomida kuzatilgan bozor omillarining real o'zgarish riski ta'sir qiladi. Shuning uchun joriy o'zgarishlar asosida bozor omillarining gipotetik n ko'paytiruvchilari hosil qilinadi. Shu tarzda olingan gipotetik belgilar real ma'lumotlarga asoslanadi. Ushbu gipotetik belgilar bilan hisoblab chiqilib, uning joriy qiymati bilan solishtirganda bozor omillari ta'sirida foyda va zararlarning n hajmi aniqlanadi.

Monte-Karlo statistik tajribalar usuli. Ushbu usulga ko'ra, minglab bozor omillari olinib, ular statistik taqsimlanib chiqiladi. Olingan ma'lumotlar portfel qiymatining o'zgarishiga olib kelgan foyda va zararlar hajmi aniqlanadi. Oxirgi bosqichda portfelning foyda va zararlari aniqlanib, risk qiymati topiladi.

Senariy tahlili. Unga ko‘ra portfelning asosiy ko‘rsatkichlari asosida prognoz qilinadi. Prognoz qilish jarayonida har bir holat uchun portfel qiymatining bozor omillari (foiz stavkasi, valyuta kursi, aksiya narxi) o‘zgarishi haqida gipotezalar tuzib chiqiladi. Takliflar asosida portfel qiymati qayta baholanadi. Olingan ma’lumotlar potensial yo‘qotishlar qiymatiga teng bo‘ladi. Senariy yondashuvida portfelni testdan o‘tkazish ham qo‘llaniladi. Testlar miqdoriy va sifat tahlillarni o‘z ichiga oladi. Miqdoriy tahlil makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘zgarishini aniqlash va ularning bank aktivlariga ta’sirini baholashga yo‘naltirilgan. Sifat tahlili ikkita test vazifalariga asoslangan:

- bank kapitalining yirik zararlarni qoplash imkoniyatini baholash;
- kapitalni saqlash va risk darajasini tushirish uchun bank qabul qilishi mumkin bo‘lgan qarorlarni aniqlash.

Test o‘tkazishning quyidagi bosqichlari mavjud:

- birinchi bosqichda test o‘tkazish uchun asos bo‘ladigan axborotlarni ishonchliligini tekshirish;
- ikkinchi bosqichda ma’lumotlar bazasi tuzilib, kredit portfeli tahlil qilinadi;
- uchinchi bosqichda risk omillari dinamikasi tanlangan vaqtlar oralig‘idagi o‘zgarishlarni aniqlash yo‘li bilan tahlil qilinadi.

Tijorat banklari tomonidan bank riskini rejalashtirish boshqarishning navbatdagi bosqichni tashkil etadi. Bu bosqichda bank strategiyasiga muvofiq riskni qabul qilish me’yorlari belgilanadi. Ya’ni tijorat banklari agressiv yoki konservativ strategiya qabul qilishlariga qarab bank tomonidan qabul qilinadigan riskning me’yori belgilanadi.

Tijorat banklari tomonidan qabul qilingan strategiyaga muvofiq, qabul qilingan riskning me’yori belgilangandan so‘ng boshqarishning yakuniy bosqichiga-foiz stavkasi riskining chegaralash va uning ma’lum darajada ushlab turishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish bosqichiga o‘tiladi. Mazkur bosqich foiz stavkasi riskini tahlil etish, chegaralash va nazorat qilishga doir hujjatlar, uslublar va usullarni ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi.

Bank riskining boshqarishga qaratilgan mazkur jarayon tijorat banklar tomonidan bir butun yaxlitlikda olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv banklarga nafaqat bank risklarini to'g'ri baholash, rejalashtirish va nazorat qilishga, balki bankning foyda va risk kombinatsiyasini optimallashtirishiga ham ko'mak beradi.

Risklarni o'lchash va identifikatsiya qilish bank sektorida risklarni boshqarish va nazorat ostiga olishning birinchi bosqichidir. Bankirlar risklarni boshqarish jarayoniga muammoni qo'yish va uni hal qilishning logik davomi tariqasida qarashlari kerak. Bank sektorida risklarni boshqarish jarayoni quyidagi asosiy bosqichlardan iborat:

- ✚ Bankning risklarga ta'sirchanligini o'lchash va identifikatsiya qilish. Bank rahbariyati bankning turli bo'linmalariga risklarning qanday omillari xavfli ekanligini aniqlashi hamda ushbu risklarning hajmi va darajasini qanday o'lchash kerakligi yuzasidan qaror qabul qilishi kerak.
- ✚ Bankning har bir bo'linmasining joriy siyosati va risk omillarining har biri adekvat tarzda kompensatsiya qilinayotganligini aniqlash uchun bu siyosatning har kunlik amaliyotga joriy qilinishining holati. Bank rahbariyati bo'linmalar faoliyatidagi eng asosiy va jiddiy risk omillarini bartaraf qilish uchun joriy faoliyat yoki strategik maqsadlarni o'zgartirish zarurati mavjudligini (yoki zarurat yo'qligini) aniqlashi lozim.
- ✚ Risklarni boshqarish sohasidaga chora-tadbirlarni tahlil qilish bilan bankning qisqa va uzoq muddatli rejalarini muvofiqlashtirish. Bank rahbariyati risk faktorlarining boshqarilish darajasi qo'yilgan maqsadlarga mosligini aniqlashi kerak.
- ✚ Risklarni boshqarish sohasida (har bir hisobot davri davomida va yakunida) olib borilgan tadbirlar va qarorlar tahlili. Bank rahbariyati risk omillarini to'liq aniqlab olganligi va ularni bartaraf qilish yuzasidan olib borilayotgan ishlar bankning qisqa va uzoq muddatli rejalarida ko'zda tutilgan maqsadlarga erishishni ta'minlay olishiga ishonch hosil qilishi zarur.

Agar risklarni oldini olishning to'liq imkoniyati bo'lmasa, u holda oxirgi manba – bu riskni boshqarish usuli, ya'ni riskni qoplash hisoblanadi.

Riskni qoplash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Banklar tomonidan umumiy va maxsus rezerv fondlarini tashkil qilish;
- Ma'lum yig'indilarni zararlarga o'tkazish;
- Kreditlar bo'yicha foizlar belgilashni to'xtatish va boshqalar.

Riskni minimallashtirish, ayniqsa kredit riski bo'yicha yuzaga keladigan muammolarni hal etishda bank boshqaruvi tomonidan ishlab chiqilgan kredit siyosatining ahamiyati katta. Chunki to'g'ri va aniq ishlab chiqilgan kredit siyosati bankning joriy moliya yilidagi risni oldini olish, uni bartaraf etish borasida asosiy hujjatlardan biri hisoblanadi.

Risklarni boshqarishda yuqorida keltirilgan usullardan foydalanishda bank tomonidan riskka ta'sir etuvchi ijobiy va salbiy omillarni hisobga olishi darkor. Aks holda, riskka ta'sir etuvchi salbiy omillar natijasida bank risklarni boshqara olmay qolishi va risklar natijasida paydo bo'lgan zararlarni o'z foydasidan ajratilgan maxsus rezerv fondlari orqali qoplashga majbur bo'ladi. Bu esa bankning barqaror faoliyat yuritishiga, kelgusida amalga oshiradigan operatsiyalariga, shuningdek faoliyatini kengaytirishi va xalqaro bozorlarda o'z o'rnini topishiga qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun bank risklarni boshqarishda nafaqat riskka ta'sir etuvchi omillarni, balki bank faoliyatiga ham ta'sir etuvchi omillarni hisobga olishi darkor. Albatta, risklarni boshqarishda yuqoridagi usullardan maksimal darajada foydalanish orqali banklar ta'bir joiz bo'lsa o'z daromadlarini maksimal darajaga yetkazish imkoniga ega bo'ladi. Bank daromadining o'sishi o'z navbatida bankning nafaqat milliy, balki jahon bozorida o'z o'rnini va obro'sini yanada mustahkamlash uchun zamin yaratadi.


## II BOB. TIJORAT BANKLARIDA BANK RISKLARINI BOSHQARISHNING JORIY HOLATI

### 2.1. Tijorat banklari risklarini boshqarish usullari va mezonlari

Banklar faoliyatini to'g'ri tashkil qilish, ularda mavjud risklarni minimallashtirish masalalaridan biri kredit risklari, ularning sifati va darajasini aniqlash va tahlil qilishdan iborat.

Chunki kredit operatsiyalari bank operatsiyalarining 60-80 % ini tashkil etadi. Bu esa bank faoliyatining ko'pgina ko'rsatkichlari aynan kredit operatsiyalariga va ulardan keladigan daromadlarga bog'liqligini ko'rsatadi.

Kredit operatsiyalarini samarali amalga oshiririshini ta'minlash va ulardan keladigan foizli daromadlarni barqarorligini ta'minlash uchun berilayotgan va avval berilgan kreditlarning risk ko'rsatkichi qay darajadiligini to'g'ri aniqlay olish hamda kreditning riskka uchrashi yoki uni chetlab o'tishi va riskni boshqarish chora-tadbirlarini amalda to'g'ri qo'llay olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Quyida biz ATB Agrobank misolida, bank aktivlarida berilgan kreditlarning ulushi, bank tomonidan berilgan kreditlar tarkibi va dinamikasini, shuningdek kredit portfelini boshqarishda uning tarmoq xususiyatiga ko'ra diversifikatsiya qilinganligini, tahlil qilib o'tamiz.




**5-rasm. ATB Agrobank aktivlari va kreditlar (mlrd.so'mda)<sup>26</sup>**

<sup>26</sup> ATB Agrobank yillik moliyaviy hisoboti asosida muallif tomonidan hisoblandi

Rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, ATB Agrobankning aktivlari 2015-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 2898,99 mlrd so'mni tashkil etgan holda, bu ko'rsatkichda bank tomonidan berilgan kreditlarning ulushi 1911,1 mlrd so'mni, ya'ni 65,9 foizni tashkil etgan. Albatta, jadval ma'lumotlaridan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, bank aktivlari va undagi berilgan kreditlarning miqdori o'sish tendensiyasiga ega. Bank tomonidan berilgan kreditlarning bank jami aktivlaridagi ulushining 65,9 foizni tashkil etishi bankda kredit riskini samarali boshqarish bo'yicha tegishli chora tadbirlarni ishlab chiqishni va u bilan bog'liq muammolarni oldini olishni taqozo etadi.

Bank tomonidan mamlakat iqtisodiyotiga ajratilgan kredit qo'yilmalarining ortishi qisqa muddatli yoki uzoq muddatli kreditlar o'sishi evaziga o'zgarishini tahlil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, bank tomonidan berilgan qisqa va uzoq muddatli kreditlarning mavjud holatini tahlil qilish muhim ahamiyatga egadir.



**6-rasm. ATB Agrobank kredit portfeli (mlrd.so'mda)<sup>27</sup>**

Rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, bank tomonidan berilgan kreditlarning umumiy hajmida uzoq muddatli kreditlarning ulushi yildan yilga oshib bormoqda va 2014-yil yakuniga kelib 1255,9 mlrd so'mni tashkil etib o'tgan yilga nisbatan 314,8 mlrd so'mga o'sgan. Bundan farqli ravishda, qisqa muddatli kreditlarning ulushi jami kreditlar tarkibida 655,2 mlrd so'mni tashki etib, o'tgan yilga nisbatan

<sup>27</sup> ATB Agrobank yillik moliyaviy hisoboti asosida muallif tomonidan hisoblandi

96,9 mlrd so'mga kamaygan. Bu esa, korxonalarining aylanma mablag'larini shakllanishida bank kreditlaridan foydalanishni ma'lum darajada pasayganligidan dalolat beradi. Bank tomonidan qisqa muddatli kreditlarning berilishi bankning aktiv mablag'larini tez aylanishini ta'minlaydi va uni yuqori darajada o'sishiga zamin yaratadi.

Tijorat banklari faoliyatidagi kredit riski darajasi bevosita ularning kredit portfelini diversifikatsiya darajasiga bog'liq.

Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishda uning tarmoq xususiyatiga ko'ra diversifikatsiya qilinganligiga alohida e'tibor berish zarur. Chunki bu xususiyat kredit portfelini diversifikatsiya qilishning asosiy mezonini hisoblanadi. Yuqoridagilarni hisobga olib, quyidagi jadval orqali ayrim olingan tijorat banklarida berilgan kreditlarni tarmoq xususiyati bo'yicha joylashtirilganligini tahlil qilamiz.

#### 4-jadval.

##### ATB Agrobank kredit portfelining tarmoq xususiyati (foizda)<sup>28</sup>

Kreditlarning tarmoq tarkibi	2012	2013	2014
Sanoat	30,4	27,2	33
Qishloq xo'jaligi	43,4	47,6	37
Transport va kommunikatsiya	0,5	0,3	1
Qurilish	0,5	0,2	1
Savdo	5,5	4,1	3
Moddiy-texnika ta'minoti	11,4	12,2	9
Uy-joy kommunal xo'jaligi	0	0	0
Boshqa tarmoqlar	8,3	8,4	16
Jami	100	100	100


Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, ATB "Agrobank" kredit portfelida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari va korxonalariga berilgan kreditlarning salmog'i yuqori bo'lib, 2014 yilning yakunida 37 foizni tashkil etgan va 2013-yilga nisbatan 10,6 foizga pasaygan. Shuningdek sanoatga yo'naltirilgan kreditlarning ulushi 33 foizni tashki etgan va 2013-yilga nisbatan 5,8 foizga

<sup>28</sup> ATB Agrobank yillik moliyaviy hisoboti asosida muallif tomonidan hisoblandi

o'rgan. Bu esa, Agrobank kredit portfelining diversifikatsiya darajasi talabga javob bermasligidan dalolat beradi. Buning sababi shundaki, xalqaro bank amaliyotida qabul qilingan me'yoriy talabiga ko'ra, tijorat bankining kredit portfelida bitta tarmoq korxonalariga berilgan kreditlarning salmog'i 25 foizdan oshib ketmasligi kerak.

Shuningdek, jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Agrobank tomonidan moddiy-texnika ta'minotiga berilgan kreditlar ham sezilarli darajada yuqori salmoqni egallagan va 9 foizni tashkil qilgan. Garchi moddiy-texnika ta'minoti alohida tarmoq hisoblansa-da, lekin u bevosita agrar sohada faoliyat ko'rsatuvchi sub'yektlarning moddiy texnika ta'minoti bilan bog'liq. Shu sababli, agrar sohadagi sub'yektlarning moliyaviy ahvolini yomonlashishi bevosita moddiy-texnika ta'minoti korxonalarining moliyaviy holatini yomonlashishiga olib keladi.

Ma'lumki, agrar sohada ishlab chiqarish mavsumiy tusda bo'lib, ob-havoni yomon kelishi oqibatida chamalangan hosil olinmasligi mumkin. Natijada qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarining pul oqimi keskin kamayadi va uning oqibatida mazkur korxonalar tomonidan olingan bank kreditlarining muddatida qaytmasligi yuz beradi.



**7-rasm. Kredit portfeli tarkibi yillar kesimida (foizda)<sup>29</sup>**

<sup>29</sup>ATB Agrobank yillik moliyaviy hisoboti asosida muallif tomonidan hisoblandi




Yuqoridagi rasmdan shuni ko'rishimiz mumkinki, ATB Agrobank tomonidan berilgan jami kreditlar tarkibidagi sanoat tarmoqlariga ajratilgan kreditlar ulushi 25-35 foiz oralig'ida, qishloq xo'jaligiga ajratilgan kreditlar 35-50 foiz oralig'ida, moddiy-texnika ta'minotiga ajratilgan kreditlar esa 10 foiz atrofida tebranmoqda.

ATB Agrobank tomonidan ajratilgan kreditlar ortishi o'z navbatida bankning o'z mijozlari oldida likvidligini ta'minlashni taqozo etadi. Tijorat banklarining likvidligini ta'minlash mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish nuqtai-nazaridan muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Tijorat banklarining likvidligini ta'minlash ularning o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish imkonini beradi. Ma'lumki, bank tomonidan o'z aktivlari va passivlarining maqbul strukturasi shakllantirgan holda, likvidlik tavakkalchiligini boshqarish tizimini takomillashtirishni ta'minlash orqali moliyaviy holatining barqarorligiga erishiladi.

Xususan, mazkur tavakkalchilik Markaziy bankning tegishli iqtisodiy me'yorlari bajarilishi, yuqori likvidli aktivlarning yetarli darajada saqlash hamda kundalik to'lov pozitsiyasi ustidan nazorat o'rnatish orqali boshqarib kelinmoqda.

Quyidagi rasm ma'lumotlari orqali ATB Agrobankning 2015-yil 1-yanvar holatigacha bo'lgan davr mobaynida joriy likvidligiga baho beramiz.




**8-rasm. 2015.01.01. holatigacha ATB Agrobank likvidlik ko'rsatkichi (foizda)<sup>30</sup>**

<sup>30</sup>ATB Agrobank yillik moliyaviy hisoboti asosida muallif tomonidan hisoblandi

2015 yil 1-yanvar holatiga bankning likvidlik koeffitsienti 40,8 foizni (min 30%), tashkil etdi. Bunda Markaziy bank tomonidan belgilangan iqtisodiy me'yorga amal qilingan. Lekin ushbu me'yorning O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Xalqaro talab va tavsiyalardan kelib chiqib 2015-yi 1-yanvar holatidan boshlab minimal 100 foizga o'zgartirilishi bank likvidligini boshqarishda yangi chora-tadbirlarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Bankda qarz oluvchilarning shartnomada belgilangan shartlar bo'yicha bank oldidagi o'z moliyaviy majburiyatlarini qisman yoki to'liq bajara olmasligi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kredit tavakkalchiligini oldini olish maqsadida qarz oluvchilar bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar bo'yicha belgilangan me'yorlarning bajarilishi ta'minlanmoqda.



**9-rasm. Bir qarzdor yoki o'zaro aloqador qarzdorlar guruhi uchun bo'lgan tavakkalchilikning maksimal hajmi(foizda)<sup>31</sup>**

Rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, hisobot sanasiga bitta qarzdor yoki o'zaro aloqador qarzdorlar guruhi uchun bo'lgan tavakkalchilikning maksimal hajmi, ta'minlangan ssudalar uchun 15,7 foizni (max 25%) tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 0,7 foizga o'sgan. Bundan ko'rinadiki ATB Agrobank tomonidan hisobot sanasiga bitta qarzdor yoki o'zaro aloqador qarzdorlar guruhi uchun bo'lgan tavakkalchilikning maksimal hajmini, ta'minlangan ssudalar uchun riskni

<sup>31</sup> ATB Agrobank yillik moliyaviy hisoboti asosida muallif tomonidan hisoblandi

boshqarish borasida amalga oshirilayotgan choralar va usullar natijasida ushbu ko'rsatkichni nisbatan bo'lsada past foizda o'sishiga erishilgan. Shuningdek, joriy davrda bitta qarzdor yoki o'zaro aloqador qarzdorlar guruhi uchun bo'lgan tavakkalchilikning maksimal hajmi, ta'minlangan ssudalar uchun belgilangan me'yorlarning bajarilishi ta'minlangan.

Respublikamiz tijorat banlarida valyuta operatsiyalari tijorat banklari operatsiyalarining asosiy turlaridan biri bo'lganligi sababli, valyuta riskini boshqarishni takomillashgan tizimini shakllantirish banklar uchun muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lgan masalalardan biri hisoblanadi.

Xalqaro bank amaliyotida, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining bank amaliyotida valyuta riski darajasini baholashda tijorat bankining ochiq valyuta pozitsiyalarining darajasiga baho berish usulidan keng foydalaniladi. Bunda tijorat bankining uning aylanmasida bo'lgan har bir xorijiy valyutadagi ochiq valyuta pozitsiyasining miqdori bilan barcha xorijiy valyutalardagi yakuniy ochiq valyuta pozitsiyasi miqdorining haqiqatdagi darajasi aniqlanadi. Undan keyin aniqlangan miqdorlar Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyalariga nisbatan belgilangan me'yoriy darajalar bilan solishtiriladi. Agar tijorat bankining ochiq valyuta pozitsiyalari miqdori ular bo'yicha o'rnatilgan me'yoriy talablar darajasidan oshmagan bo'lsa, u holda, bankda valyuta riskining darajasi mo'tadil deb, hisoblanadi.


O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyalariga nisbatan 2005 yilning 31 avgustidan boshlab quyidagi me'yoriy chegaralar belgilangan:

- ⊙ Tijorat bankining bitta valyutadagi ochiq valyuta pozitsiyasi miqdori bank regulyativ kapitalining 10 foizidan oshib ketmasligi lozim.
- ⊙ Tijorat bankining barcha valyutalardagi yakuniy ochiq valyuta pozitsiyasining miqdori bank regulyativ kapitalining 20 foizidan oshib ketmasligi lozim<sup>32</sup>.

---

<sup>32</sup> Markaziy bank ma'lumotlari asosida kiritildi

Chet el valyutasi ochiq pozitsiyalari bo'yicha chet el valyutalar kurslarning o'zgarishi natijasida bankda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tavakkalchilikning oldini olish ochiq valyuta pozitsiyalarini boshqarish yo'li orqali amalga oshirilmoqda. Quyidagi rasm orqali ATB Agrobankning chet el valyutasi ochiq pozitsiyalari bo'yicha chet el valyutalar kurslarning o'zgarishi natijasida bankda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tavakkalchilikning qay darajada boshqarilayotganligi, shuningdek, ochiq valuta pozitsiyasining bankning 1-darajali kapitalidagi ulushi va dinamikasini ko'rib chiqamiz.



**10-rasm. ATB Agrobankning ochiq valuta pozitsiyalarining 1-darajali kapitalidagi ulushi (foizda)<sup>33</sup>**

Rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, ATB Agrobankning ochiq valyuta pozitsiyalari 1-darajali kapitalning 9,2 foizni tashkil etgan holda o'tgan yilga nisbatan 0,5 foizga, 2013-yil 1-yanvar holatiga nisbatan esa 8,7 foizga pasayishiga erishilgan. Shuni ta'kidlash joizki, bu valuta tavakkalchiligining pasayishib borishi bank tomonidan valuta tavakkalchiligini boshqarishda va uni minimallashtirishga alohida e'tibor berilmoqda. Shuningdek, Markaziy bankning talabi hamda xalqaro standartlarga muvofiq valyuta tavakkalchiligini baholash maqsadida ochiq valyuta pozitsiyalari 1-darajali kapitalning 20 foizdan oshmasligi belgilab qo'yilganini e'tiborga olsak, mazkur baholash mezoni bank tomonidan ijobiy bajarilgan.

<sup>33</sup> ATB Agrobank yillik moliyaviy hisoboti asosida muallif tomonidan hisoblandi

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, biz ATB Agrobankning risklarni boshqarishda tegishli normativlarga rioya etilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Albatta bu normativlarning bajarilishini ATB Agrobank va Davlat Tijorat Xalq banki o'rtasidagi qiyosiy tahlil asosida ko'rib chiqsak.

#### 5-jadval

#### Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan iqtisodiy me'yorlarning bajarilish (2015-yil 01.01 holatiga)<sup>34</sup>

Iqtisodiy normativlar	ATB Agrobank	Xalq banki	Belgilangan normativ
Bank kapitalining yetarlilik koeffitsiyenti	13,3	10,3	Min. 10 %
Bank birinchi darajali kapitalining yetarlilik koeffitsiyenti	14,9	8,1	Min 5 %
Leveraj koeffitsiyenti	13,2	7,5	Min 6 %
Joriy likvidlik koeffitsiyenti	40,8	44	Min 30 %
Bir qarzdor yoki o'zaro aloqador qarzdorlar guruhi uchun bo'lgan tavakkalchilikning maksimal hajmi, ta'minlangan ssudalar uchun	15,7	43,8	25 %
Barcha yirik kreditlar uchun tavakkalchilikning maksimal hajmi	0,394	1,772	Maks. 8 barobar

Jadva ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Markaziy bank tomonidan belgilangan normativlarning bajarilishi joriy holatida ATB Agrobankning ko'rsatkichlari Xalq bankidan nisbatan ijobiydir. Lekin, Xalq bankining riskni boshqarishda muhim rol o'ynaydigan ko'rsatkichlar bo'yicha risklilik darajasi yuqoriligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, Bir qarzdor yoki o'zaro aloqador qarzdorlar guruhi uchun bo'lgan tavakkalchilikning maksimal hajmi, ta'minlangan ssudalar uchun ATB Agrobankning ko'rsatkichi 15,7 foizni tashki etgan va minimal 25 foizlik me'yordan oshmagan, Xalq bankining bu ko'rsatkichi esa 43,8 foizni tashkil etib, belgilangan me'yordan sezilarli darajada, ya'ni 18,8 foizga yuqoridir. Bu ko'rsatkichlardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, ATB Agrobankda riskni boshqarish tizimi yetarli darajada to'g'ri yo'lga qo'yishga erishib kelinmoqda. Chunki riskni boshqarish tizimini takomillashtirish orqali moliyaviy holatning barqarorligiga erishish mumkin

<sup>34</sup> ATB Agrobank va Xalq banki yillik moliyaviy hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

Mamlakatimiz tijorat banklari riskni boshqarish, riskli operatsiyalarni kamaytirish va nazorat qilish uslublarini ishlab chiqishgan. Bu uslublar bilan quyidagi jadval orqali tanishamiz:

Tijorat banklarida riskli operatsiyani kamaytirish va nazorat qilish uslubi quyidagi jadvalda aks etadi.

## 6-jadval

### Tijorat banklarida riskli operatsiyani kamaytirish va nazorat qilish uslubi<sup>35</sup>

Usul	Qo‘llashning afzalliklari
Ichki nazorat tartibi va tizimi	Betaraf qarash
Riskli operatsiyaga limitlar tizimi	Mumkin bo‘lgan zararni chegaralash
Mavjud muammoni aniqlash uchun hisobot tizimi	Riskli operatsiyani boshqarishni taqdirlashni tashkil etish
Sug‘urtalash va qayta Sug‘urtalash	Sug‘urtachiga riskni o‘tkazish
Zaxirani tashkil etish ( ssudalar bo‘yicha an’anaviy zaxira)	Mavjud zararni qayta to‘lash imkoniyatlari
Moliya bozorida operatsiyani amalga oshirish tartibi	O‘tkaziladigan operatsiyada nazorat va oldini olish olish
Moliyaviy operatsiyani amalga oshirishda ma’lumot tizimini ishlatish	Markazlashgan to‘liq va o‘z vaqtida ma’lumot olish ruxsatini cheklash

Bu yondashishlar riskli operatsiyani tahlil qilishva operatsiyalar bo‘yicha zararlar monitoringini bankning xususiy tahlil modeli aktiv qo‘llashni nazarda tutadi. Zararni baholashni ushbu uslub yordamida hisoblash kapitalning yetarliligi talabiga mo‘ljallangan. Banklar nazorat tashkiloti ruxsat berganda va bu uslub sonli sifatli aniqlash qoniqtirish sharti bilan qo‘llashadi. Bazel qo‘mitasi riskli operatsiyani ichki baholash asosida yondashishni taklif qildi. Bunga faoliyatning bir necha yunalishi standart ajratildi, riskli operatsiya natijasida operatsiya keltirishi mumkin bo‘lgan zarar qo‘shimcha aniqlandi.

<sup>35</sup> O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari asosida tuzildi

Keltirilgan operatsiya zarari ko'rinishlari ro'yxatini Bazel qo'mitasi taklif etgan. Riskni ichki baholash ushbu yondashishda faoliyat yo'nalishining har bir kombinatsiyasi va operatsion zararga bank kushimcha kursatgich belgilash zarur deb ko'zda tutadi.

Ayni vaqtda nazorat tashkiloti bankka turli faktorlar orasida aloqalar o'zaro bog'likligini hisobga olishga ruxsat berishi va riskli operatsiyada talab qilingan kapitalni hisoblashda bank individual baholashga qo'llaniladigan usulning o'zaro bog'liqligini aniqlay oladi. Bu o'lchovga qo'shimcha qilib, riskli Bazel qo'mitasi operatsiya oqibatida zararlar bo'yicha ichki va tashqi ma'lumotlarga ichki modelni qo'llashda hamda ichki nazorat tizimi va tashqi muhitni hisobga olish va senariylangan tahlil o'tkazish talabini sharhladi. Shunday qilib zararli operatsiyalar bo'yicha bank o'zining ichki ma'lumot bazasini tashkil etishi kerak, modellar bo'yicha hisoblashda baholash oldindan tasniflashda yoki tahlikani empirik baholashga asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Qayd qilish kerakki riskli operatsiyani bank ichida baholash kamida 5 yillik zararlar bo'yicha ichki statistika asoslanish lozim. Bank o'zining hisoblarida riskli operatsiyada zararlar oqibatiga tashqi ma'lumotlarni ishlatishi lozim, bank doirasida yetkazilgan zarar to'g'risida ochiq ma'lumot tushuniladi. Tashqi ma'lumotlar alohida holatlar bo'yicha modellashtirishda ko'rilishi mumkin bo'lgan katta zararining oldini olishda juda foydali bo'lishi mumkin. Bankning maqsadi katta zararli holatni oldindan aytish, ko'rsatgichlarni statistik taqsimlashda qisman ta'sir etishi mumkin. Nihoyat butun bank miqyosida riskli operatsiyani baholashda ichki nazorat tizimida mavjud tashqi muhitning alohida belgilarini e'tiborga olib qo'llash kerak, bu bankni riskli operatsiyadan ehtiyotlashga xizmat qilishi mumkin. Bunday ma'lumotlar talab qilingan kapitalga o'zgartirishlar kiritishda hisobga olinishi mumkin, agar bank uslubni tanlashni asoslasi, baholash risk ko'rsatgichiga ta'sir etadi. Mumkin qadar bu faktorlar sonli o'lchovda bo'lsa, bu tasniflashning imkoni bo'ladi.

## **2.2 Tijorat banklari risklarini boshqarish bo'yicha xalqaro talablar**

### **(Bazel)**

Bank sohasi jahon moliya tizimining ajralmas qismi bo'lib, ushbu sohadagi mavjud xalqaro nazorat talablarini yanada kuchaytirish, yangi sifat darajasiga ko'tarilish lozimligini bugungi kunga qadar o'z asoratlarini saqlab kelayotgan jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi yana bir bor tasdiqladi va davlatlar bank tizimlari oldiga mazkur sohani isloh qilishning yangi vazifalarini qo'ymoqda.

Bank nazorati amaliyotini xalqaro andozalarga va bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi talablariga mos ravishda tashkil etish maqsadida, 1996 yildan boshlab Respublika Markaziy Banki Jahon banki va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda bank nazoratini rivojlantirishga qaratilgan loyihalar ustida ish olib bora boshladi.

Bazel standarti 1988 yilda ishlab chiqilgan va amaliyotga 1993-yilda joriy etilgan. Bazel standartining amaliyotga joriy etilishi tijorat banklari faoliyatidagi risklarni baholash amaliyotini takomillashtirish yo'lidagi muhim qadamlardan biri deb hisoblash mumkin.

Bazel standartini xalqaro bank amaliyotida birinchi bo'lib, tijorat banklarining aktivlari to'rt risk, ya'ni 0, 20, 50, 100 foizli daraja bo'yicha riskka tortildi. Ular tarkibiga quyidagilar kiradi:

0 % risk darajasiga ega bo'lgan aktivlarga, ya'ni risksiz aktivlarga quyidagilar kiradi:

- Tijorat bankining kassalaridagi naqd pullar;
- bankning Markaziy bankdagi «Nostro» vakillik hisobraqamidagi pul mablag'lari;
- Markaziy bankda qayta hisobga olinadigan trattalar;
- Tijorat banki tomonidan hukumatning 90 kungacha muddatga chiqarilgan qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalar (O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari tomonidan hukumatning qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalar, ularning muddatidan qat'iy nazar, risksiz aktiv hisoblanadi);



- Hukumat va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri talablar va bu emitentlar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar;
- Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga (IHTT) kiruvchi mamlakatlar hukumatlari va markaziy banklari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar, shuningdek, bu mamlakatlar hukumatlari va markaziy banklariga qo‘yiladigan boshqa talablar;
- aktivlar yoki ularning IHTTga kiruvchi mamlakatlar milliy valyutalariga denominatsiya qilinib, naqd pul bilan ta‘minlangan hamda bankda alohida cheklab qo‘yilgan depozit hisobraqamda saqlanayotgan qismi.

20 % risk darajasiga ega bo‘lgan aktivlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- tijorat bankining boshqa banklardagi «Nostro» vakillik hisobraqamlaridagi pul mablag‘lari;
- hukumatning 90 kundan ortiq muddatga chiqarilgan qimmatli qog‘ozlariga qilingan investitsiyalar;
- flout (inkassatsiya jarayonidagi pul mablag‘lari);
- IHTT mamlakatlarida ro‘yxatdan o‘tgan banklar va boshqa depozitar institutlarning kreditlari, kafolatlari bilan ta‘minlangan kreditlar va boshqa aktivlar yoki ularning qismi;
- bankning xalqaro kredit tashkilotlariga bergan kreditlari va boshqa talablari, shuningdek, ushbu tashkilotlarning qimmatli qog‘ozlari bilan ta‘minlangan talablar.

50 % risk darajasiga ega bo‘lgan aktivlarga quyidagilar kiradi:

- ipoteka kreditlari;
- IHTT davlatlarida ro‘yxatga olingan depozitar institutlarga nisbatan talablar, shu jumladan, qarzar va pul bozori vositalari;
- IHTT davlatlarida ro‘yxatga olingan depozitar institutlarning kreditlari bilan ta‘minlangan boshqa barcha aktivlar;
- bankning IHTT davlatlari mahalliy hokimiyat organlariga nisbatan talablari, shuningdek, ular tomonidan kafolatlangan bank aktivlari. Bu talablar va

kafolatlar bo'yicha to'lovlar alohida loyihalar bo'yicha tushumlardan emas, balki yuqorida ko'rsatilgan tashkilotlar byudjeti hisobidan amalga oshiriladi.

- bankning xalqaro kredit tashkilotlariga nisbatan talablari, shuningdek, bu tashkilotlar tomonidan kafolatlangan bank aktivlari;
- joriy bozor qiymatida baholangan va xalqaro kredit tashkilotlari tomonidan muomalaga chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bilan ta'minlangan aktivlar va ularning qismlari;
- bankning IHTTga a'zo bo'lmagan mamlakatlarning milliy valyutalariga denominatsiya qilingan va milliy valyutadagi majburiyatlar bilan qoplangan, IHTTga a'zo bo'lmagan davlatlar Markaziy Hukumatlari va markaziy banklariga nisbatan talablari. Milliy valyutaga denominatsiya qilinmagan va milliy valyutada moliyalashtirish summasidan oshib ketgan aktivlar qismi risk darajasi yuqori (100 foiz) bo'lgan aktivlar qatoriga kiritiladi.

Tijorat banklarining 100 % risk darajasiga ega bo'lgan aktivlariga quyidagilar kiradi:

- korporativ qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar;
- mijozlarga berilgan kreditlar;
- asosiy vositalar;
- boshqa aktivlar.

Quyidagi balansdan tashqari aktivlar yuqori riskli, ya'ni risk darajasi 100 foizga teng bo'lgan aktivlar hisoblanadi:

- bank tomonidan mijozlarning foydasiga ochilgan ta'minlanmagan akkreditivlar;
- bank tomonidan berilgan kafolatlar;
- forvard tranzaksiyalari;
- bank tomonidan berilgan opsiyonlar va fyucherslar.

Bazel-II ning muhim talablaridan biri yetarli darajada zaxira ajratmalari bilan ta'minlanmagan bank kreditlarining risk darajasini oshirish talabidir. Ushbu talabning mohiyati shundaki, kreditning qaytarish muddati tugaganiga 90 kun va undan ortiq vaqt o'tgan bo'lsa, yaratilgan zaxira ajratmasi miqdori kredit bo'yicha

umumiy qarzdorlikning 20 foizidan kam bo'lsa, u holda, mazkur kreditlarning risk darajasi 150 foizni tashkil qiladi. Bu esa, muddati o'tgan kreditlarning brutto kreditlar hajmidagi salmog'i nisbatan yuqori bo'lgan tijorat banklarining likvidliligiga va kapital bazasining barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Buning sababi shundaki, birinchidan, respublikamizda kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari to'liq tijorat banklarining xarajatiga olib boriladi. Bu esa, o'z navbatida, banklarning sof foydasini kapitallashtirish darajasining pasayishiga xizmat qiladi. Ikkinchidan, muddati o'tgan kreditlarning 150% darajasida riskka tortilishi tijorat banklarining riskka tortilgan aktivlari summasining oshishiga olib keladi. Buning natijasida tijorat banklari kapitalining yetarlilik koeffitsienti pasayadi. Uchinchidan, kreditlarning asosiy qismi tijorat bankining "Nostro" vakillik hisobraqamlarini kreditlash yo'li bilan amalga oshiriladi. Shu sababli, kreditlarning muddatida qaytmasligi bankning likvidli aktivlari miqdorining kamayishiga va shuning asosida uning joriy likvidlilik darajasining pasayishiga olib keladi.

Muddati o'tgan kreditlarning risk darajasini oshishi natijasida tijorat banklarining kapital bazasi va ularning likvidliligiga nisbatan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy ta'sirga barham berish uchun Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining muddati o'tgan kreditlariga nisbatan qo'yiladigan talablar aniqlashtirilishi va kuchaytirilishi lozim. Fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tijorat banklarining muddati o'tgan kreditlarining yo'l qo'yish mumkin bo'lgan chegaraviy darajasini 5% darajasida belgilashi va unga rioya qilinishi ustidan nazorat o'rnatishi lozim. 5% deyishimizning sababi shundaki, Xalqaro ta'mirlash va taraqqiyot banki ekspertlarining tavsiyasiga ko'ra, tijorat banklarida muddati o'tgan kreditlarning brutto kreditlar hajmidagi salmog'ining yo'l qo'yish mumkin bo'lgan chegaraviy darajasi 5 foizni tashkil qilishi lozim. Xalqaro bank amaliyotida ushbu tavsiya me'yoriy ko'rsatkich sifatida qabul qilingan.

Bazel-II standartida operatsion risk bo'yicha kapitalning yetarliligini hisoblash uchun uch usuldan foydalanish tavsiya etilgan. Birinchi usul bazaviy

indikator usuli, ikkinchi usul – standart usul, uchinchi usul esa, kengaytirilgan usul hisoblanadi.

Bazel-II talablarida kapitalga nisbatan talabni aniqlashda operatsion risklarni o'lchashning 3 ta usuli: baza ko'rsatkichlari asosida yondashuv, standartlashgan yondashuv, rivojlantirilgan yondashuvni keltiradi.

Baza ko'rstakichlari asosida yondashuvda bank operatsion risklarni qoplash uchun oxirgi uch yilda o'rtacha yillik yalpi ijobiy foydaning 15% iga teng kapitalni ko'zda tutishi lozim. Kapitalni hisoblash formulasi quyidagicha:

$$K_{BIA} = [ \sum (GI_{1...n} * \alpha) ] / n$$

Bu yerda:  $K_{BIA}$  - kapitalga qo'yilgan talab;  $GI$  - oxirgi uch yilda o'rtacha yillik yalpi ijobiy foyda;  $n$  - yillar miqdori (uch yil);  $\alpha$  - 15% bu kurstakich Bazel qo'mitasi tomonidan belgilangan.

Standartlashgan yondashuvda butun bank faoliyati 8 ta yo'nalishga ajratiladi: korporativ moliya, oldi-sotdi va sotish, chakana bank xizmatlari, bankning tijorat operatsiyalari, to'lovlar va hisob-kitoblar, agent xizmatlari, aktivlarni boshqarish va chakana brokerlik operatsiyalari. Har bir yo'nalish bo'yicha yalpi foyda mazkur yo'nalish uchun foiz me'yorini aniqlashda asos bo'ladi. Ushbu foiz me'yorini risklarning har bir yo'nalish bo'yicha darajasi va turiga bog'liq holda 12 dan 18 foizgacha tebranadi. Kapitalni hisoblash formulasi quyidagicha

$$K_{TSA} = \{ \sum_{yillar1-3} \max [ \sum (GI_{1-8} * \beta_{1-8}), 0 ] \} / 3$$

Bu yerda:  $K_{TSA}$  - kapitalga qo'yilgan talab;  $GI_{1-8}$  - har yil uchun 8 ta yo'nalish bo'yicha o'rtacha yillik yalpi ijobiy foyda;  $\beta_{1-8}$  - 12-18% bu ko'rstakich Bazel qo'mitasi tomonidan belgilangan.

Rivojlantirilgan yondashuv operatsion riskni qoplash uchun kerak bo'ladigan kapital miqdorini hisoblashning xususiy usuliga asoslanadi. Ushbu usulni ma'lum bir sifat va miqdor andozalariga javob beradigan banklar ishlatishi mumkin. Bank rahbariyati Markaziy bankni operatsion riskni baholash tizimi,

ma'lumotlar jamlash sifati, nazorat mexanizmini shakllantirilganligiga ishonirishi lozim.

Mazkur usullar bo'yicha hisoblangan kapitalning yetarlilik koeffitsientlari bir-biridan sezilarli darajada farqlanadi. Shu sababli, fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki mavjud uch usuldan birini tanlab olishi va respublikamiz tijorat banklarining barchasida operatsion risk bo'yicha kapitalning yetarliligi ana shu usulda hisoblanishi lozim. Fikrimizcha, kapitalning yetarliligini hisoblashning kengaytirilgan usulini respublikamiz bank amaliyotida qo'llash uchun sharoit mavjud emas. Chunki ushbu usul banklarning o'zlari ishlab chiqqan reyting baholash natijalariga asoslanadi. Respublikamiz banklarida esa, operatsion riskni baholashning reyting usuli mavjud emas.

Ma'lumki, Xalqaro hisob-kitoblar bankining ma'lumotlariga ko'ra, dunyoning 150 mamlakatida (O'zbekiston ham shular jumlasidan) tijorat banklari kapitalining yetarliligini baholash bo'yicha Xalqaro Bazal qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan standart qo'llaniladi. Ushbu standartga ko'ra, tijorat banki regulyativ kapitalning yetarliligini aniqlash uchun regulyativ kapital summasi bankning riskka tortilgan aktivlari summasiga bo'linadi. Ushbu koeffitsientning eng past darajasi 8% qilib belgilangan. Agar tijorat bankida mazkur koeffitsientning amaldagi darajasi 8 foizdan past bo'lsa, u holda, ushbu bankning balansi nollikvid hisoblanadi. Respublikamiz tijorat banklarida esa, regulyativ kapitalning yetarlilik darajasi 24 foizdan yuqoridir.

Regulyativ kapitalning yetarlilik koeffitsienti tijorat banklarining to'lovga qobilligini tavsiflovchi muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklari kapitalining yetarliligini baholash bo'yicha uchta metodika mavjud bo'lib, ularning ichida nisbatan mukammali, ko'pchilik taniqli ekspertlarning (K.Barltrop, D.MakNoton, A.Simanovski, V.Usoskin, O.Lavrushin va boshq.) fikriga ko'ra, Xalqaro Bazal qo'mitasi ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan metodika hisoblanadi.

Tijorat banki kapitalining yetarliligini baholash bo'yicha Xalqaro hisob-kitoblar banki tomonidan ishlab chiqilgan metodikada kapitalning yetarliligi

regulyativ kapitalni aktivlarning umumiy summasiga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Ushbu koeffitsientning eng past normativ darajasi 8% qilib belgilangan.

AQSh Federal zaxira tizimi tomonidan ishlab chiqilgan metodika bo'yicha, tijorat banki kapitalining yetarliligi kapitalni depozitlarning umumiy summasiga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Ushbu koeffitsientning eng past normativ darajasi 10% qilib belgilangan.

Bazel-II ning Bazel-I dan farq qiluvchi asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

- Bazel-II da tijorat banklari regulyativ kapitali yetarliligining risklarga yuqori darajada ta'sirchan bo'lgan tizimini yaratish vazifasi qo'yilgan. Ushbu tizim banklarning o'zi tomonidan amalga oshiriladigan risklarni miqdoriy baholashga asoslanadi.
- Kredit riskini pasaytirish maqsadida qo'llaniladigan instrumentlarga katta e'tibor qaratilgan.
- Kapitalning operatsion riskka nisbatan yetarliligiga yangi talablar qo'yilgan.
- Nazorat organlarining vakolatlari kengaytirilgan.

Bazel-II standarti tarkibiy jihatida kapitalga nisbatan minimal talablar bo'yicha tavsiyalar berilgan. Bunda kapitalga nisbatan minimal talablar kredit, bozor va operatsion risklarning darajasidan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

Umumiy kapitalning riskka tortilgan aktivlarga nisbati 8 foizdan kam bo'lmasligi kerak.

Bazel-II da kontragentda hosilaviy qimmatli qog'ozlar, REPO bitimi bo'yicha yuzaga keladigan kredit risklari darajasi ham kapitalning yetarliligini baholashda hisobga olinadi.

Bazel-II kredit riskini o'lchash bo'yicha uch yondashuvni taklif etadi:

- ✓ standartlashgan yondashuv;
- ✓ ichki reytinglarga asoslangan bazaviy yondashuv (IRB-Internal rating-based approach);
- ✓ ichki reytinglarga asoslangan takomillashgan yondashuv.

Bazel-II kredit riskini baholashda qo'llaniladigan koeffitsientlar quyidagilarni hisobga oladi:

- mamlakatning suveren kredit reytingi;
- bankning reytingi;
- kredit olgan mijozning reytingi;
- bank operatsiyasining turi.

AQShlik bank nazorati bo'yicha ekspertlar Bazel-1 ning ayrim talablariga,, shu jumladan, kredit riskini baholash bo'yicha talabiga nisbatan jiddiy e'tirozlar bildirib kelinayotgan edi. Bazel-1 da tijorat banki tomonidan mijozlarga berilgan kreditlarning risk darajasi 100% qilib belgilangan edi (ipoteka kreditlari bundan mustasno). Banklar tomonidan hukumatlarga berilgan kreditlarning risk darajasi esa, ushbu mamlakatlarning Ijtimoiy-Iqtisodiy Hamkorlik Tashkilotiga a'zo yoki a'zo emasligidan kelib chiqqan holda belgilanar edi. Bu esa, AQSHlik ekspertlarning noroziligiga sabab bo'ldi. Ular haqli ravishda e'tiroz bildirishdi: nima Indoneziya hukumatining kredit to'loviga layoqatliliqi AQShning "Jeneral Motors" kompaniyasidan yuqorimi?

Bazel qo'mitasi ekspertlari AQSh ekspertlarining e'tirozini hisobga olishdi va xalqaro kreditlarning risk darajasini mamlakatning suveren kredit reytingiga bog'liq ravishda belgilash tartibini joriy qilishdi.

Mavjud bo'lgan AAA dan C- gacha tashqi reytinglar shkalasida Bazel II" V- dan kam bo'lmagan reytinglarni e'tiborga oladi. Yanada past reytingli yuridik shaxslarga (ularning qaysi tarmoqqa aloqador ekanligidan qat'iy nazar) yuqori baholash koeffitsienti beriladi (150% miqdorida).

"Bazel-II" tomonidan, davlatlar va markaziy banklarga berilgan (suveren reytingi deb atalmish) reytinglar, u yoki bu korxonaga yoki kredit tashkilotining yakka tartibdagi kredit reytinglari va eksport kredit reytinglari farqlanadi.

Kontragentlarning risk darajasi quyidagi tarzda aniqlanadi:

Suverenlarga nisbatan - davlatning tashqi kredit reytingiga bog'liq ravishda;

Birinchisi– rezidenti u yoki bu bank, yoki mahalliy hokimiyat idorasi bo'lgan, davlatning tashqi kredit reytingiga asoslangan.

Ikkinchisi – bankning yoki mahalliy hokimiyat idorasining o'z reytingiga.

2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi Bazel qo‘mitasini banklarning kapitaliga nisbatan belgilangan talablarni keskin kuchaytirishga majbur qildi. Natijada Bazel-III deb nomlanuvchi yangi Bitim yuzaga keldi va uning asosiy jihatlari 2010 yilning 12 sentyabridan kuchga kirdi.

Ushbu yangi Bitim Bazel-II ni bekor qilmaydi, balki uni to‘ldiradi.

## 7-jadval

### Bank kapitali yetarliligi bo‘yicha Bazel-III talablarini joriy etish muddatlari<sup>36</sup> (Tegishli moliyaviy yilning 1 yanvar holatiga)

Ko‘rsatkich nomi	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019
Bazaviy I darajali kapital (Oddiy aksiyalar + taqsimlanmagan foyda)ga minimal talab	3,5%	4,0%	4,5%	4,5%	4,5%	4,5%	4,5%
Maxsus zaxira(konservatsiya buferi) kapitali				0,625%	1,25%	1,875%	2,50%
Bazaviy I darajali kapitalga minimal talab + Maxsus zaxira kapitali	3,5%	4,0%	4,5%	5,125%	5,75%	6,375%	7,0%
I darajali kapitalga minimal talab	4,5%	5,5%	6,0%	6,0%	6,0%	6,0%	6,0%
Umumiy kapitalga minimal talab	8,0%	8,0%	8,0%	8,0%	8,0%	8,0%	8,0%
Umumiy kapitalga minimal talab + Maxsus zaxira kapitali	8,0%	8,0%	8,0%	8,625%	9,25%	9,875%	10,5%

Qo‘mitaning yangi talablarini bajara olmagan tijorat banklari bonus to‘lovlari va dividendlar miqdorini kamaytirishga majbur bo‘ladilar.

Aksiyadorlik kapitali miqdoriga nisbatan belgilangan talablar oshirildi.

Agar mazkur talab bundan oldin aktivlarning riskka tortilgan summasini soliq to‘langunga qadar bo‘lgan miqdorini 2 foizini tashkil etgan bo‘lsa, endi Ushbu ko‘rsatkich mazkur summaning soliq to‘langandan keyingi miqdorining 4,5 % darajasida belgilandi.

<sup>36</sup> www.bis.org –xalqaro Bazel qo‘mitasining rasmiy web sayti ma’lumotlari



Birinchi darajali kapitalning yetarliligiga nisbatan belgilangan minimal talab oshirildi. Ushbu talab 2013 yildan 2015 yilgacha bo'lgan davrda amaldagi 4 foizdan 6 foizga oshiriladi.

Kapitalning himoyaviy «konservatsiya «buferi» joriy etiladi. Kapitalning himoyaviy «konservatsiya «buferi» birinchi darajali kapitalning 2,5 foizi hajmida tashkil etiladigan qo'shimcha zaxiradan iboratdir. Shunday kilib, birinchi darajali kapitalga nisbatan belgilangan umumiy talab darajasi 7 foizni tashkil etadi (2,5% + 4,5 %).

Kontrtsiklik bufer joriy etiladi. Kontrtsiklik bufer bank o'z kapitalining 0 % dan 2,5 foizigacha hajmda tashkil etiladi va kreditlash hajmining keskin oshishiga to'sqinlik qiladi.

Tijorat banklarining o'z kapitali va jalb etilgan kapitali o'rtasidagi nisbat. Ushbu nisbat risksiz miqdorni aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Risksiz miqdor sifatida birinchi darajali kapitalning 3 % darajasi olinadi. Mazkur ko'rsatkich 2013-2017 yillarda joriy qilinadi va tegishli tuzatishlardan so'ng direktiv ahamiyat kasb etadi.

Bazel-III da bank likvidliligiga nisbatan ham yangi talablarni beligalydi. 2015 yildan boshlab likvidlilikni qoplash ko'rsatkichi - Liquidity Coverage Ratio (LCR) joriy etiladi.

#### **Likvidlilikni qoplash ko'rsatkichi - Liquidity Coverage Ratio (LCR)<sup>37</sup>**

<b>LCR=</b>	<b>(yuqori sifatli aktivlar)/(30 kun mobaynida sof pul chiqimlari) ≥100%</b>
-------------	------------------------------------------------------------------------------

LCR 30 kunlik muddatda kapital chiqimini yuqori likvidli aktivlar zaxirasi bilan qoplanishini ko'rsatadi.

Banklarda moliyalashtirishning yetarliligini nazorat qilish maqsadida Net Funding Stability Ratio (NFSR) ko'rsatkichini 2018 yildan boshlab joriy etish

<sup>37</sup>Basel Committee on Banking Supervision (www.bis.org). 2010 year

koʻzda tutilgan. Ushbu koʻrsatkich mavjud va talab qilinadigan moliyalashtirish hajmi oʻrtasidagi nisbat shaklida aniqlanadi.

**Banklarda moliyalashtirishning yetarliligini nazorat qilish- Net Funding  
Stability Ratio (NFSR) koʻrsatkichi<sup>38</sup>**

<b>NSFR=</b>	<b>(Mavjud barqaror manbalar) / (talab qilingan barqaror manbalarning foydalanilishi) ≥ 100%</b>
--------------	--------------------------------------------------------------------------------------------------

Yuqoridagi yangi talablar bank tizimida joriy etishda quyidagi muammolar yuzaga kelishi mumkin:

- Oddiy aksiyalar salmogʻini oshirish uchun qoʻshimcha aksiyalarni muomalaga chiqarish va investorlarni jalb etish, aksiyalar taklifining ortishi hisobiga aksiya bahosining pasayishi;
- Taqsimlanmagan foyda salmogʻini oshirish borasida aksiyadorlar oʻrtasida manfaatlar kelishmovchiligining yuzaga kelishi;
- Iqtisodiy retsessiya sharoitida sof foydani oshirish imkoniyatining cheklanishi;
- Yangi likvidlilik talabini joriy etish hisobiga daromadlilikning pasayishi;
- Banklarning kreditlash koʻlamining qisqarishi va h.k.

Bazel-1 standartiga koʻra, tijorat banklari aktivlari yoki ularning IIHT mamlakatlarida roʻyxatdan oʻtgan banklar va boshqa depozitar institutlarning kreditlari, kafolatlari bilan taʼminlangan kreditlar va boshqa aktivlar 20 % risk darajasiga ega. Holbuki, mazkur standartga koʻra, tijorat banklari tomonidan mijozlarga berilgan kreditlar 100% risk darajasiga ega.

Biz ekspertlarning Bazel qoʻmitasining banklar faoliyatidagi kredit riskini aniqlashda mijozning IIHTga aʼzolik omilini hisobga olmaslik xususidagi fikriga qoʻshilamiz. Fikrimizcha, kredit riskini baholashda Bazel qoʻmitasi tomonidan taklif qilingan standart yondashuvdan kredit riskini baholashda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Buning sababi shundaki, birinchidan, kredit riski darajasi

<sup>38</sup> Basel Committee on Banking Supervision (www.bis.org). 2010 year

mijozning xalqaro reyting agentliklari tomonidan berilgan reyting ballari asosida aniqlanadi, reyting ballari esa, ob'yektiv voqelikni aks ettiradi. Ikkinchidan, standartlashgan yondashuvni qo'llash oson.

Bazel-1 tizimiga binoan risk darajasini o'lchash standart koeffitsientlari aktivlarning keng toifalariga, chunonchi: davlat (suveren), bank va korporativ aktivlarga beriladi. Masalan, korporativ riskni qoplash uchun qarz oluvchining kredit sifatidan qat'i nazar kapitalga 8% (ya'ni riskni o'lchash koeffitsientining 100%) miqdorida ajratmalar qilish nazarda tutiladi.

Ichki reytinglar asosidagi yondashuvda kredit riski darajasi bankning ichki reytinglariga asoslangan ballarga bog'liq ravishda belgilanadi. Banklarning ichki reytingi esa, mijozlarning kredit tarixiga asosan belgilanadi. Mazkur yondashuvda uch muhim jihat mavjud:

- ✚ bank o'zining va o'z kontragentlarining krizis yoki bankrot imkoniyatlariga mustaqil baho berishni amalga oshirishga qodir bo'lishi lozim;
- ✚ bank risklarga integral baho bera olishi zarur;
- ✚ ichki baholash bank qanday ma'lumotlardan foydalanishiga bog'liq bo'ladi, ya'ni bank o'z risklarini ishonchli ma'lumotlarga muvofiq o'lchashga qodir bo'lishi shart.

Kapitalga qo'yiladigan talablarni hisoblashda IRB yondashuvlarida faqat kutilmagan zararlar (Unexpected Loss–UL)ga berilgan baholar hisobga olinadi. Kutilayotgan zararlar (Expected Loss–EL) kreditlar bo'yicha ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxiralarga kiritiladi.

Hisoblangan zaxiralar kutilayotgan zarardan kamroq bo'lsa, zaxiralarning bu taqchilligi tartibga soluvchi kapitaldan teng qismlarga bo'lib hamda birinchi va ikkinchi daraja kapitallaridan chegirib qolinadi. Zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxiralarning ortiqcha qismi ikkinchi daraja kapitalga, lekin yuqori limit bilan qo'shib qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklarining aktivlarini riskka tortishda xalqaro Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan 4 ta risk darajasi hisobga olingan: 0%, 20%, 50%, 100%. Ammo riskka tortish bo'yicha Qo'mita tomonidan

belgilangan barcha talablar respublikamiz bank amaliyotida o'z aksini topgan. Masalan, hukumatning qimmatli qog'ozlari riskka tortilayotganda ularning muddati Bazel andozalari bo'yicha hisobga olinadi. Ya'ni, hukumatning faqat 90 kungacha muddatga chiqarilgan obligatsiyalari va boshqa turdagi qimmatli qog'ozlari risk darajasiga ega emas. Hukumatning 90 kundan ortiq muddatga chiqarilgan barcha qimmatli qog'ozlari 20 % risk darajasiga egadir. Respublikamizda esa, hukumatning qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalar risk darajasiga ega emas. Holbuki, inflyatsiya va devalvatsiya ta'sirida qimmatli qog'ozlarga banklar tomonidan qilingan investitsiyalarning real qiymatini pasayish xavfi mavjud.

Loyihalarning risklarini boshqarish nuqtai nazaridan Bazel-II standartini joriy etish banklar tomonidan moliyalashtiriladigan loyihalarning risk parametrlarini asoslashga nisbatan talablarni asta-sekin kuchaytirilishini taqozo etadi. Bunda mazkur talablar banklarning o'zlari tomonidan ham, davlat tomonidan ham standartlashtiriladi. Bunda asosiy e'tibor loyihalar risklari ustidan nazorat nafaqat kredit arizasi berishning dastlabki bosqichida, balki tegishli kredit liniyalari amalga oshirilishiga qarab bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Bazel-II standarti talablarini bajarish borasidagi tayyorgarlik tadbirlarini amalga oshirish jarayonida bitimni milliy bank tizimlari sharoitiga moslashtirish bilan bog'liq bo'lgan bir qator qiyinchiliklar, murakkabliklar yuzaga kelishi mumkin.

Ta'kidlash joizki, Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan yangi standartlarni amaliyotga joriy etish murakkab va qiyin jarayon hisoblanadi. Shu sababli, qator mamlakatlarda mazkur standartlarni joriy etish muddatlari kechiktirilmoqda. Xususan, AQShda ushbu yangi standartlarning talablariga hozirgi kunda yigirmataga yaqin bank rioya qiladi. Buning sababi shundaki, bitim kichik va o'rta banklarga uni joriy etishga qilinadigan ko'p miqdordagi xarajatlar bilan taqqoslaganda juda kam ustunlik beradi. Bundan tashqari, AQSh nazorat organlari rezervga ajratiladigan kapital hajmlarining kamayishi mamlakat bank tizimining risklari hajmini oshirishi mumkinligidan qattiq xavotirga tushmoqda.

Bazel-II hujjatida yangi standartlarga o‘tish muddatlari Bazel Qo‘mitasi tomonidan quyidagicha ta’riflangan: “Mazkur hujjat jahon mamlakatlarining nazorat organlari o‘rtasida ularga kapitalning yetarlilik miqdorini aniqlashning yangi sxemasini qabul qilish imkoniyatini bu ular faoliyatining ustuvor vazifalariga ko‘proq darajada mos kelgan paytda ko‘rib chiqishni taklif qilish maqsadida tarqatiladi”<sup>39</sup>.

Bazel-II asosiy hujjatining mazmuni ruhi va so‘ziga ko‘ra aniq va tushunarli bo‘lishi uchun shuni e’tiborga olish lozimki, uning matnida Bazel-1 hujjatining<sup>40</sup> kapitalni turli toifalarga mansub deb topishning asosiy qoidalariga tegishli bo‘lgan qoidalari Bazel-II sxemasida o‘z kuchini saqlab qolishiga va Bazel Qo‘mitasi tomonidan qabul qilingan va tayyorlanayotgan boshqa yigirma hujjatni o‘zlashtirish lozimligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishoralar mavjud. Yana bir muhim shart–Qo‘mita mafkurasi va metodologiyasining negizi hisoblangan asosiy tamoyillarni<sup>41</sup> sinchiklab o‘rganish.

Respublikamiz tijorat banklarida 2019 yil 1 yanvardan boshlab esa K1 ning eng kam darajasi tavakkalchilikka tortilgan aktivlarning 3 foizi miqdoridagi konservatsiyalangan kapital buferini hisobga olgan holda 0,145 (14,5) foiz miqdorida ta’minlashlari lozim.

#### **Kapital yetarliligi koeffitsienti<sup>42</sup>**

<b>Kapital yetarliligi koeffitsienti</b>	<b>Regulyativ kapital</b>	<b>≥14,5%</b>
	<b>Riskka tortilgan aktivlari (kredit riski + operatsion risk + bozor riski)</b>	

Konservatsiyalangan kapital buferi tavakkalchilikka tortilgan aktivlarning 3,0 foizi miqdoridagi qo‘shimcha zaxira hisoblanadi. Ushbu zaxirani tashkil etishdan maqsad, banklar moliyaviy va iqtisodiy tanglik davrida yo‘qotishlarni

<sup>39</sup> International Convergence of the Capital Measurement and Capital Standards. Basle, 2004 year

<sup>40</sup> International Convergence of the Capital Measurement and Capital Standards. Basle, July 1988, updated to April 1997

<sup>41</sup> Основные принципы эффективного банковского надзора. Консультативный документ. Базельский Комитет по Банковскому Надзору. Базель, 1997.

<sup>42</sup> Markaziy bank ma’lumotlari asosida kiritildi

amortizatsiyalash uchun foydalaniladigan zaxira kapitali mavjudligining kafolatidir.

Shu bilan birga, birinchi darajali kapitalning yetarlilik koeffitsienti 2016 yil 1 yanvardan boshlab K2 ning eng kam darajasi 0,075 (7,5 foiz) miqdorida oʻrnatiladi.

### **1-darajali kapital yetarliligi koeffitsienti<sup>43</sup>**

<b>1-darajali kapital yetarliligi koeffitsienti</b>	<b>1-darajali kapital</b>	<b>≥7,5%</b>
	<b>Riskka tortilgan aktivlari (kredit riski + operatsion risk + bozor riski)</b>	

Ushbu yangi oʻzgarishlarning kiritilishi, albatta, bank nazoratiga oid meʼyoriy hujjatlarning xalqaro standartlar asosida takomillashishiga olib keladi. Lekin masalaga boshqa tomondan ham qarash lozim. Riskka tortilgan aktivlarni hisoblashda yangi risklarning qoʻshilishi bank kapitali yetarliligi koʻrsatkichining keskin tushib ketishisha olib keladi. Chunki operatsion riskka tortilgan aktivlar miqdori koʻpchilik tijorat banklarida katta summani tashkil etishi mumkin.

Shunday qilib, Bazil-3 kelishuvi joriy moliyaviy inqiroz sharoitlarida bank sohasida mikro va makro darajadagi chora tadbirlarni ishlab chiqdi. Mikro darajada kapital bazasini mustahkamlash, riskni qoplash talablarini oshirish, qarz yuki koeffitsientini joriy etish kabi alohida banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish masalalarini qamrab olsa, makro darajada butun bank tizimi barqarorligini mustahkamlash yuzasidan kontrsiklik buferi, konservatsiya buferini joriy etish kabi choralar iqtisodiy inqiroz davrlarida moliyaviy muammolaning real iqtisodiyotga tarqalishining oldini olishda, bank tizimini mustahkamlash, mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

<sup>43</sup> Markaziy bank maʼlumotlari asosida kiritildi

### **III BOB. BANK RISKLARINI BOSHQARISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMI**

Respublikamiz tijorat banklarining faoliyatidagi risklarni boshqarish samaradorligini oshirish borasidagi asosiy muammolar, xususan kredit riski va uni baholash masalalari qator iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlarida o'z ifodasini topgan. Masalan, prof.V.Usoskin o'zining "Zamonaviy tijorat banki: boshqaruv va operatsiyalari" nomli monografiyasida mijozni bank tomonidan kredit liniyasi ochish yo'li bilan kreditlash orqali kredit riski darajasini sezilarli darajada pasaytirish mumkin, degan xulosaga keldi<sup>44</sup>. Uning fikriga ko'ra, kredit liniyasi orqali mijozni kreditlashda kompensatsion qoldiqdan foydalanish mijozning kreditni qaytarish bilan bog'liq bo'lgan to'lov yukini kamayishiga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, kredit riski darajasining pasayishiga sabab bo'ladi.

Fikrimizcha, kompensatsion qoldiqni O'zbekiston Respublikasi bank amaliyotida qo'llash kredit liniyasining kreditlash shakli sifatidagi jozibadorligini oshiradi.D.Polfreman, F.Fordlar muallifligidagi "Bank ishi asoslari" kitobida mijozning kredit yig'ma jildini o'rganishga e'tiborni kuchaytirish orqali banklar faoliyatidagi kredit riski darajasini pasaytirishni taklif qilingan<sup>45</sup>.

Fikrimizcha, mijozlarning kredit yig'ma jildi asosida ularning kredit tarixini o'rganish respublikamiz bank amaliyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, mijozlarning ma'lum qismi moliyaviy imkoniyatlarga ega bo'la turib, kreditni qaytarmaydilar. Ushbu toifa mijozlar uchun kredit tarixi asosida kredit berish to'g'risidagi qarorning qabul qilinishi banklar faoliyatidagi kredit riskini sezilarli darajada kamaytirgan bo'lar edi. O'zbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 23 apreldagi 197-sonli «Qarz oluvchilarning kredit tarixi to'g'risidagi axborotni hisobga olish tizimini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga asosan Markaziy bank huzurida Kredit Axboroti Milliy Institutining (KAMI) tashkil qilinishi banklarning kredit riski bilan bog'lik muammolarini kamaytirishda muhim qadam bo'ldi. Shuningdek, Kredit riski bilan

---

<sup>44</sup> М.О.Маркова Н.Н.Мартыненко О.С.Рудакова, Н.В.Сергеева Банковские операции 2012

<sup>45</sup> О.И. Лаврушин О.Н.Афаньсева С.Л.Корниенко Банковское дело 2009

bog'liq muammolarni kamaytirish usullaridan biri bo'lib, kreditni sindikatlashgan asosda berish hisoblanadi. Respublikamizda yirik investitsiya loyihalarini sinditsiyalashtirilgan kreditlash amaliyoti Markaziy bank Boshqaruvining 2005 yil 16 iyuldagi 15/4-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Tijorat banklari tomonidan yirik investitsiya loyihalarini sinditsiyalashtirilgan kreditlashni amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Nizom asosida tartibga solinadi.

Ushbu Nizomga muvofiq umumiy qiymati tijorat banklarining birinchi darajali kapitalining 25 foizidan oshadigan investitsiya loyihasi yirik investitsiya loyihasi hisoblanadi. Bunda sinditsiyalashtirilgan kreditlar faqat yuridik shaxslarga beriladi. Sinditsiyalashtirilgan kreditlashda tashabbus bilan chiqqan va zimmasiga ishtirokchi-banklar nomidan kredit hujjatlarini yuritish mas'uliyati yuklatilgan qarz oluvchining asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga xizmat ko'rsatuvchi bank yetakchi bank hisoblanadi. Yetakchi bank tomonidan muammoli kreditni paydo bo'lishini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar boshqa ishtirokchi banklar bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Tijorat banklari kredit bo'linmalari xodimlarining korxonalar moliyaviy hisobotlarini tahlil qilish borasidagi bilimi va tajribalarini oshirish choralarini ko'rish lozim.

Bank xodimlarining moliyaviy tahlil sohasida chuqur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi mijozlarning kredit to'loviga layoqatliligini to'g'ri baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki moliyaviy ko'rsatkichlarni ham, mijozlarning pul oqimini ham to'g'ri hisoblash moliyaviy hisobotlarda keltirilgan ma'lumotlarning haqqoniyligiga bog'liqdir.

Sh.Abdullaeva tijorat banklari faoliyatidagi kredit riskini boshqarishni takomillashtirish yo'li bilan kredit portfelining sifatini oshirish mumkin, deb hisoblaydi<sup>46</sup>. Shu bilan birga, respublikamizning qator tijorat banklarida kredit portfelini diversifikatsiyalash talabiga rioya etilmayotganligi kredit riski muammosini keskinlashishiga olib keladi. Buning boisi shundaki, bank

---

<sup>46</sup> Абдуллаева Ш.З. Банк рисклари ва кредитлаш.– Т.: Молия, 2002 й.



kreditlarining asosiy qismi joylashtirilgan tarmoqda foyda normasining pasayishi muddati o'tgan kreditlar hajmining keskin o'sishiga olib keladi.

Z.Umarovanning fikriga ko'ra, tijorat banklari faoliyatidagi kredit riski darajasini pasaytirish uchun tijorat banklarining investitsion kreditlaridan foydalanish uchun taqdim etilgan biznes-rejalardagi ko'rsatkichlarni yetarli darajada asoslanmaganligi, berilgan kreditlar ustidan yetarli darajada monitoring o'rnatilmaganligi.

Biznes-rejalarda yetarli darajada asoslanmagan ko'rsatkichlarning mavjudligi investitsion kreditlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik hajmining oshib ketish xavfini yuzaga keltiradi. Afsuski, tijorat banklari mijozlarining aksariyat qismi biznes-reja tuzishda yetarli bilim va malakaga ega emas. Achinarlisi, ular biznes rejaga kredit olish uchun talab etiladigan rasmiy bir hujjatdek yondashmoqdalar.

Amaliyotda yuzaga kelayotgan muammoli kreditlarning sezilarli qismi tijorat banki mansabdor shaxslarining kredit berish mexanizmi qoidalariga rioya etmagan holda o'z mansab vakolatini suiste'mol qilishi, ya'ni mansabdor shaxsning o'z mansab vakolatidan noqonuniy foydalanishi oqibatida yuzaga kelmoqda.

Tijorat banklarining kreditlash amaliyotini tahlil qilish natijalari shu ko'rsatmoqdaki, ayrim tijorat banki rahbarlari o'z mansab vakolatlaridan foydalanib kredit qo'mita a'zolari fikri bilan ham hisoblashmagan holda yoki qo'mita qaroriga salbiy ta'sir etishi natijasida moliyaviy jihatdan beqaror bo'lgan, biznes rejasida ko'rsatkichlar real bo'lmagan ayrim mijozlarga majburiyat ijrosining ta'minotisiz kreditlar bermoqdaki, buning oqibatida muammoli kreditlar miqdori ortmoqda.

Tijorat banklarining kredit siyosatiga Markaziy bank tomonidan qo'yiladigan talablarda berilgan kreditlar ustidan doimiy monitoringni amalga oshirishning zarurligi belgilab qo'yilgan. Mazkur monitoringda quyidagi holatlar tekshirilishi lozim:

- ⊙ kredit olgan sub'yektning xo'jalik-moliyaviy faoliyati;
- ⊙ qarzdorning tuzilgan shartnomalarga muvofiq mahsulot etkazib berish majburiyatlarini bajarishi;
- ⊙ kredit olgan sub'yektning ishlab chiqarish hajmlari, noishlab chiqarish xarajatlari va yo'qotishlari, muomala chiqimlari, foydasi, o'z aylanma mablag'larining yetarliligi;
- ⊙ qarzdorning tovar-moddiy boyliklar zaxiralari ahvoli;
- ⊙ debitor qarzdorlikning aylanish darajasi;
- ⊙ asosiy vositalarning aylanishi va h.k<sup>47</sup>.

Banklar amaliyotida eng keng tarqalgan, kredit riskini kamaytirish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- ⇒ Qarzdorning kreditga bo'lgan layoqatliligini baholash. Bu usul mijoz reytingini aniqlashni ko'zda tutadi. Qarzdorni baholash mezonlari har bir bank uchun qattiq individuallashtirilgan bo'lib, uning amaliyotidagi mavqeidan kelib chiqishi va vaqti-vaqti bilan qayta ko'rib chiqilishi lozim.
- ⇒ Bir qarzdorga beriladigan kreditning hajmini kamaytirish. Bu usul mijozning kreditga layoqatliligiga to'liq amin bo'lmagan hollarda qo'llaniladi.
- ⇒ Kreditlarni sug'urtalash. Kreditni sug'urtalash uning qaytmaslik riskini to'liq sug'urtalash bilan shug'ullanuvchi tashkilot zimmasiga yuklanishini ko'zda tutadi. Sug'urtalash bilan bog'liq barcha xarajatlar ssuda oluvchilar tomonidan to'lanadi.
- ⇒ Yetarli ta'minlanishni talab qilish. Bunday usul bankdan berilgan summaning qaytishini va foiz olinishini kafolatlaydi. Kredit riskidan himoyalashda asosiy e'tibor zararlarni qoplash uchun mo'ljallangan yetarli ta'minotni jalb qilishga emas, balki ushbu zararlarga yo'l qo'ymaslik uchun qarzdor kreditga layoqatliligini tahlil qilishga qaratadi.

---

<sup>47</sup> Умарова З.С. Ўзбекистон Республикасида тижорат банклари кредит эмиссиясини тартибга солишни такомиллаштириш йўналишлари. И.ф.н. илм. дар. ол. уч. тақд. эт. дисс. автореф. – Тошкент, 2011. – Б. 79-80.

⇒ Diskontli ssudalar berish. Diskontli ssudalar unchalik katta bo‘lmagan darajada kredit riskini pasaytirishga yordam beradi. Bunday usulda kredit berish kreditga minimum to‘lov olishni ta‘minlaydi.

Shuningdek, kredit risklarini boshqarish usullari qilib quyidagilar ham olinsa bank uchun kredit riskini boshqarishda qulayliklar tug‘dirishi mumkin:

**8-jadval**

**Kredit risklarini boshqarish usullari va ularning tarkibi<sup>48</sup>**

Boshqarish usullari	Usullarning tarkibi
Differenziatsiya	Qarz oluvchilarning kreditga qobilligini baholash hamda uning reytingidan kelib chiqqan holda kreditlash shartlarini belgilash.
Kredit mablag‘larining diversifikatsiyasi	Kreditlashning turli xil ob‘ekt va ko‘rinishlarini amaliyotga joriy etish, muddati bo‘yicha kredit portfelining muvofiqligini ta‘minlash va boshqalar.
Risklarni chegaralash	Alohida tarmoqlar va bir qarz oluvchiga to‘g‘ri keluvchi kredit miqdorlarining limitini o‘rnatish, yirik qarz oluvchilar uchun kredit miqdorining limitini belgilash va muammoli kreditlarni boshqarish.
Risklarni xedjirlash	Xosilaviy moliyaviy instrumentlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish.
Risklarni bo‘lish	Yirik loyihalarni hamkorlikda kreditlash doirasida boshqa banklar bilan munosabatlar o‘rnatish.

Agar kredit riskidan himoyalaniishning boshqa usullari qo‘llanilmasa, uning qaytishi muammolar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Jahon tiklash va taraqqiyot banki eksperti K.Barltropning fikriga ko‘ra, tijorat banklarida kreditlardan ko‘rilgan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalarining yo‘l qo‘yish mumkin bo‘lgan chegaraviy darajasi 5 foizdan oshmasligi lozim<sup>49</sup>. Tijorat banking xoriijiy valyutada berilgan kreditlari hisobga olinadigan balans schyotlarining qoldiqlari ochiq valyuta pozitsiyasini aniqlashda hisobga olinadi. Bunda bank tomonidan xoriijiy valyutada berilgan kreditlar konversiya qilinmagan holatda ochiq valyuta pozitsiyasining miqdorini

<sup>48</sup> Костюченко Н. Анализ кредитных рисков 2010

<sup>49</sup> Р.Г.Одъхова Банковское дело: управление в современном банке 2009

o'zgarishiga olib kelmaydi, chunki aktivdagi valyuta schyotlaridagi summa bir schyotdan boshqasiga o'tadi. Ssudalarning tasnifiy belgilari va muddati o'tgan foizlarning mavjudligi bankning ochiq valyuta pozitsiyasini aniqlash nuqtai-nazaridan hech qanday ahamiyatga ega emas. Buning sababi shundaki, kreditlarning tasnifiy belgilari kredit riskining darajasini ko'rsatadi, valyuta riskining esa darajasini ko'rsata olmaydi<sup>50</sup>.

I.Noskova xususiy tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyalari miqdorini qisqartirishda hisobli forvarddan foydalanishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. Uning fikriga ko'ra, hisobli forvard shartnomalari haqiqatda valyuta-almashuv operatsiyalarini amalga oshirishni ko'zda tutmaydi. Chunki shartnoma tuzilayotgan paytda bazaviy aktivni etkazib berish majburiyati bitimda ishtirok etuvchi tomonlarning zimmasiga yuklanmaydi. Ushbu shartnomalar bo'yicha hisob-kitoblar faqat rublda amalga oshiriladi. SHartnoma summasi bazaviy valyutaning dastlabki boshlang'ich kursi bilan uning kelgusi davr uchun aniqlangan kursi o'rtasidagi farq summasi sifatida aniqlanadi. Lekin shu bilan birga, I.Noskova ogohlantiradiki, hisobli forvard shartnomalarini o'z vaqtida xorijiy valyutani sotish va sotib olish summalari o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlamaslik banklarning zimmasiga kurslarning tebranish riskini yuklaydi<sup>51</sup>.

Rossiyalik taniqli iqtisodchi olim G.Soloduxinning fikriga ko'ra, tijorat banklarining valyuta riskini pasaytirish maqsadida ularning ochiq valyuta pozitsiyalarini qisqartirishning quyidagi usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bunda banklarning qisqa valyuta pozitsiyalari hajmini qisqartirishda quyidagi usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

- xorijiy valyutalarni sotib olish;
- xorijiy valyutalarda depozitlar qabul qilish;
- xorijiy valyutalarda emissiya qilingan qimmatli qog'iozlarni sotish.

---

<sup>50</sup> М.О.Маркова Н.Н.Мартыненко О.С.Рудакова, Н.В.Сергеева Банковские операции 2012.

<sup>51</sup> М.О.Маркова Н.Н.Мартыненко О.С.Рудакова, Н.В.Сергеева Банковские операции 2012

Tijorat banklarida uzun valyuta pozitsiyalari hajmini qisqartirishda ham 3 usuldan foydalanilmoqda:

- \* xorijiy valyutalari sotish.
- \* xorijiy valyutalarda kreditlar berish;
- \* xorijiy valyutalarda emissiya qilingan qimmatli qog'ozlarni sotib olish.

Yuqorida qayd etilgan usullardan O'zbekiston Respublikasi bank amaliyotida foydalanish imkoniyatlari cheklangan va ushbu holat quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

- ⊙ Banklarning xorijiy valyutalarda depozitlar qabul qilish imkoniyatining cheklanganligi.
- ⊙ Hozirgi davrda respublikamiz tijorat banklari tomonidan xorijiy valyutalardagi depozitlarga nisbatan belgilangan foiz stavkalari darajasi past.
- ⊙ Xorijiy valyutalardagi depozitlarning foiz stavkasini past darajada ekanligining asosiy sababi shundaki, banklar horijiy valyutalarda qabul qilingan depozitlarning asosiy qismini horijiy banklarga banklararo depozit sifatida joylashtirishmoqda. Ushbu depozitlarga halqaro ssuda kapitali bozorining stavkalarda (LIBOR, FIBOR, PIBOR va hok.) foiz to'lanadi. Ushbu stavkalarining darajalari past.
- ⊙ Xorijiy valyutalardagi depozitlar foiz stavkalarining past darajada ekanligi ularni keng ko'lamda bank muassalarda jalb etishda to'sqinlik qiladi.
- ⊙ Respublikamiz tijorat banklarida horijiy valyutalarda emissiya qilingan qimmatli qog'ozlarning mavjud emasligi. 2015 yilning 1 yanvar holatiga respublikamiz banklarning hech qaysisi halqaro fond birjalarning listingiga kirmagan.

Shuningdek, respublikamiz banklarining ochiq valyuta pozitsiyalarini baholashda faqatgina spot operatsiyalari va muddatli valyuta operatsiyalari hisobga olinmoqda. Banklarning xorijiy valyutalardagi depozit-ssuda operatsiyalari va qimmatli qog'ozlarni sotib olish-sotish operatsiyalari ochiq valyuta pozitsiyasini baholashda inobatga olinmayapti. Fikrimizcha, ochiq valyuta pozitsiyalarining baholashning ushbu tartibi to'g'ri emas. Chunki, birinchidan, tijorat banklari

xorijiy valyutalarda depozitlar qabul qilganda, ularning balansida xorijiy valyutalar kirimi ko'payadi. Bu esa, ularning uzun valyuta pozitsiyasi miqdorining oshishiga olib keladi. Ikkinchidan, tijorat banklari kredit berganda, bankning balansida xorijiy valyutalar chiqimi miqdori oshadi va natijada uning qisqa valyuta pozitsiyasi miqdori oshishi kerak. Uchinchidan, tijorat banki tomonidan xorijiy valyutada emissiya qilingan qimmatli qog'ozning sotib olinishi uning ushbu valyutadagi qisqa valyuta pozitsiyasi miqdorining oshishiga olib kelishi kerak. To'rtinchidan, tijorat banki tomonidan xorijiy valyutada emissiya qilingan qimmatli qog'ozni sotilishi uning mazkur valyutadagi uzun valyuta pozitsiyasi miqdorining oshishiga olib keladi.

Fikrimizcha, respublikamiz tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyasini baholashda banklarning har uchala turdagi valyuta operatsiyalari (spot operatsiyasi, muddatli valyuta operatsiyalari, svop operatsiyasi), xorijiy valyutalarda amalga oshiriladigan depozit-ssuda operatsiyalari va xorijiy valyutalarda emissiya qilingan qimmatli qog'ozlarni sotib olish-sotish operatsiyalari o'z aksini topgan bo'lishi kerak.

T. Boboqulovning fikriga ko'ra, tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyalariga nisbatan belgilangan mazkur cheklovlarning (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyalariga nisbatan 2005 yilning 31 avgustidan boshlab quyidagi cheklovlar o'rnatildi: 1. Tijorat bankining bitta valyutadagi ochiq valyuta pozitsiyasining miqdori uning regulyativ kapitalining 10 foizidan oshib ketmasligi lozim; 2. Tijorat bankining barcha valyutalardagi yakuniy netto valyuta pozitsiyasining miqdori uning regulyativ kapitalining 20 foizidan oshib ketmasligi lozim) me'yoriy darajasini turli davlatlarda bir-biridan keskin farqlanmasligining sababi shundaki, tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyalarini tartibga solish maqsadida ishlab chiqilgan metodikaning mualliflari bo'lib xalqaro Bazel qo'mitasining ekspertlari hisoblanadi. Respublikamiz bank amaliyotida qo'llanilayotgan cheklovlarning me'yoriy darajasi bilan G'arbiy Yevropa mamlakatlarida qo'llanilayotgan cheklovlarning me'yoriy darajalarida yaqinlik mavjud.

Valyuta riskini kamaytirish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

- ⇒ Kredit shartnomasida oʻrnatilgan forvard kursini hisobga olib boshqa valyutada qaytarish sharti bilan biror bir valyutada ssuda berish. Bunday tadbirlar bankni kredit valyutasi kursining pasayishi ehtimolligidan himoya qiladi.
- ⇒ Forvard valyuta kontraktlari. Bu valyuta riskini pasaytirishning asosiy usulidir. Bunday operatsiyalar bitim summasini va forvard almashuv kursini shartnomada qatʼiy oʻrnatib xorijiy valyutani oldi-sotdisi boʻyicha bank va mijoz oʻrtasida muddatli kelishuv imzolanishini koʻzda tutadi.
- ⇒ Valyutaviy fyuchers kontraktlar. Fyucherslar maʼlum birmiqdordagi xorijiy valyutani kelgusida aniq bir kunda sotish yoki sotib olish kelishuvini oʻzida aks ettiradi. Lekin forvard kontraktlaridan farqli ravishda uning shartlari nisbatan oson va engil koʻrib chiqiladi.
- ⇒ Valyuta opsiyonlari.
- ⇒ Valyuta svoplari. Valyuta svopi ikki tomon oʻrtasida turli valyutalardagi toʻlovlarning almashinishi (albatta, kelajakda) haqidagi kelishuvdir.
- ⇒ Valyuta riskini sugʻurtalash. Hamma riskni sugʻurta tashkilotiga oʻtkazishni koʻzda tutadi.

Shuningdek, yuqoridagi muammolarni hal etishda, respublikamizda bank risklarini boshqarishni takomillashtirish boʻyicha Oʻzbekistonda tijorat banklari faoliyatidagi risklarni boshqarishga nisbatan minimal talablar Markaziy bank Boshqaruvi tomonidan 2011-yil 7 mayda 14/2-sonli qaror bilan tasdiqlangan "Tijorat banklarining bank tavakkalchiliklarini boshqarishiga nisbatan qoʻyiladigan talablar toʻgʻrisida"gi nizomga muvofiq belgilanadi<sup>52</sup>.

Banklardan bank tavakkalchiliklarini boshqarishda quyidagilar talab etiladi:

---

<sup>52</sup> Markaziy bankning 2011-yil 7 maydagi "Tijorat banklarining bank tavakkalchiliklarini boshqarishiga nisbatan qoʻyiladigan talablar tugrisida"gi 740-sonli nizomi

- bank faoliyati va uning atrofidagi muhitning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi, aniq ifodalangan va hujjatlashtirilgan tavakkalchiliklarni boshqarish siyosatini ishlab chiqish;
- bank tavakkalchiligini boshqarish vazifalari yuklangan tarkibiy bo'linmani tashkil etish;
- bank tavakkalchiligini boshqarish bo'linmasini tajribali va malakali mutaxassislar bilan ta'minlash;
- bank yangi xizmatlarni joriy qilishda, yirik bitimlarni tuzishda, xorijiy moliya institutlari bilan aloqa o'rnatishda, investitsiyalar kiritishda, chet el valyutasidagi mablag'larni aktivlarga joylashtirishda, yangi xodimlarni ishga qabul qilishda va boshqa bank tavakkalchiligi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan bank operatsiyalarini tavakkalchilikni yuzaga kelishi va uni bartaraf etish, oldini olish, kamaytirish nuqtai nazaridan bank tavakkalchiligini boshqarish bo'linmasi bilan kelishuvni amalga oshirish.

Bank tavakkalchiligini boshqarish bo'linmasi xodimlari quyidagi talablarga javob berishlari lozim:

- bajarayotgan vazifalari xususiyatiga mos bo'lgan oliy ma'lumotga ega bo'lishi;
- bankning kredit, valyuta, depozit va qimmatli qog'ozlar bo'yicha operatsiyalari, buxgalteriya hisobi va hisoboti, yuridik xizmati va axborotlashtirish bo'limlarida kamida ikki yil ish stajiga va kasbiy malakaga ega bo'lishi (bo'linma rahbari uchun bankning mazkur bo'limlarida kamida ikki yil rahbarlik lavozimida yoki bo'linmada kamida to'rt yil ish staji va kasbiy malakaga ega bo'lish talab etiladi);
- tegishli xodimlar milliy va xalqaro buxgalteriya hisobi, xalqaro audit standartlari qoidalarini qo'llash, bank nazorati bo'yicha Bazil qo'mitasi tamoyillari va standartlari hamda xalqaro reyting kompaniyalarining bank faoliyatini baholash uslubiyoti bo'yicha bilimlarga ega bo'lishi va bank tavakkalchiliklari bo'yicha maxsus kurslarda malakalarini oshirishi.



Quyidagilar bank tavakkalchiligini boshqarish bo‘linmasining vazifalari hisoblanadi:

- bank faoliyatida uchrashi mumkin bo‘lgan barcha tavakkalchiliklar ro‘yxatini yuritish, ularning yuzaga kelish omillarini o‘rganish va monitoring qilish hamda tavakkalchiliklarni boshqarish bo‘yicha barcha choralarni ko‘rish;
- bank tavakkalchiliklarini baholash;
- bank faoliyatida bank tavakkalchiliklarini boshqarish borasida qabul qilinishi lozim bo‘lgan choralar, talablar va me‘yorlarni bank Boshqaruvi organi muhokamasiga kiritish;
- normativ-huquqiy hujjatlar talablariga asosan bank tavakkalchiliklarini qoplash uchun zaxiralarni shakllantirish yuzasidan choralar ko‘rish;
- bank xizmatlari va operatsiyalarini amalga oshirish bo‘yicha bankning ichki hujjatlari loyihasini ishlab chiqishda va bank xodimlarining lavozim majburiyatlarini belgilashda qatnashish;
- joriy qilinayotgan yangi bank xizmatlari va operatsiyalari, bitimlar yuzasidan takliflar tayyorlash;
- bank xizmatlarini ko‘rsatish va operatsiyalarini amalga oshirish tartiblarini takomillashtirish;
- bank kredit (investitsiya) portfelini kredit (investitsiya) turi, qarzdor (emitent)ning iqtisodiyot tarmog‘i, xududi, kredit ta‘minoti, maqsadi, foizi va undirish muddatlari bo‘yicha alohida-alohida monitoring o‘rnatish va ularni tahlil qilish;
- muammoli kreditlarni, ularning iqtisodiyotning qaysi sohasiga tegishliligini, muammoga aylanganlik sababini, ushbu kreditlarni ajratish va monitoring qilish jarayonlarini o‘rganish natijasida tegishli xulosalar qilish va takliflar tayyorlash;
- kredit tavakkalchiligini aniqlash va oldini olish maqsadida kredit olgan shaxslar bo‘yicha ma‘lumotlarni umumlashtirish va tegishli xulosalar qilish;

- bank axborotlari bazasiga ruxsatsiz kirishdan ishonchli himoyalashni ta'minlovchi dasturlarni ishlab chiqish va takomillashtirishda ishtirok etish;
- bank xodimlari tomonidan bank xizmatlarini ko'rsatishda va bank operatsiyalarini amalga oshirishda o'z lavozim majburiyatlari va vazifalariga hamda normativ-huquqiy hujjatlarga qat'iy amal qilinishini ta'minlash yuzasidan choralar ko'rish;
- bankning moliyaviy holatini, likvidligini stress-testdan o'tkazish va mijozlarni skoring tahlil qilish uslublarini ishlab chiqish va ularning qo'llanilishini ta'minlash;
- bankda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan barcha xizmat (omomat va kredit) turlari va operatsiyalar ro'yxatini yuritish;
- jahondagi moliya va iqtisodiy sohalarda, shu jumladan milliy iqtisodiyotda yuz berayotgan o'zgarishlarni o'rganish, kuzatish va lozim bo'lsa takliflar tayyorlash;
- bank menejmenti va texnologiyalari, shu jumladan bank tavakkalchiliklarini boshqarish bo'yicha xalqaro va xorijiy banklar tajribalarini va bu borada yangiliklarni o'rganish va takliflar tayyorlash;
- har yarim yilda, bank Boshqaruvi va bank Kengashining tavakkalchiliklarni nazorat qilish Qo'mitasi yigilishlarida muhokama qilish uchun bank tavakkalchiliklarini boshqarish borasida olib borilayotgan ishlar natijalari bo'yicha hisobotlar berish.

Bundan tashqari, Markaziy bank tomonidan 2014 yilda pul-kredit sohasidagi vaziyat va monetar siyosatning 2015 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlarida tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish tizimini xalqaro andoza va me'yorlar, shu jumladan, bank nazorati bo'yicha Bazal qo'mitasining yangi tavsiyalari asosida takomillashtirish bo'yicha ishlarni davom ettirish maqsadida 2015 yilda bank nazorati bo'yicha Bazal qo'mitasining tavsiyalariga («Bazel-III» talablariga) muvofiq, 2015 yilda tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish tizimini yanada takomillashtirishda asosiy e'tibor:

- ✓ bank tizimidagi tizimli tavakkalchiliklarni aniqlashga qaratilgan makroprudensial tahlilning zamonaviy usullarini joriy qilish bo'yicha ishlarni davom ettirishga;
- ✓ ilg'or xalqaro tajribaga asoslangan holda banklarning likvidlik riskiga ta'sirchanligini makromodellardan foydalangan holda stress-testlardan o'tkazish amaliyotini takomillashtirish va joriy qilish ko'lamini yanada kengaytirishga;
- ✓ risklarni boshqarishning ichki tizimlariga katta urg'u berilgan holda xarajatlar va daromadlarning maqbul tarkibi va darajasini ta'minlash orqali banklarning operatsion faoliyati samaradorligini yanada oshirish choralarini ko'rishga qaratilishi belgilab qo'yilgan.

Bank faoliyatini nazorat qilishning zarurligi amalga oshiriladigan monetar siyosatning asosini tashkil etish bilan birgalikda respublikamizning bozor iqtisodiyotiga o'tishdagi o'ziga xos yo'li bilan ham bog'liqdir.

Respublikamizda Markaziy bank tomonidan tijorat banklari faoliyatini nazorat qilinishining asosiy maqsadi tijorat banklariga biron bir iqtisodiy chora ko'rish yemas, balki bank faoliyatida mavjud bo'lgan kamchiliklarni bartaraf etib, bank tizimining barqarorligini oshirish natijasida bank omonatchilari va kreditorlarining manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir.

Shuni alohida qayd etish lozimki, respublikamizda Markaziy bank tomonidan tijorat banklarini sonini ko'payishga yo'l qo'ygan MDH davlatlaridan farqli o'laroq, banklarning sonidan ham ko'ra sifatiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa, ko'plab davlatlarda yuz bergan moliyaviy inqirozlarni respublikamiz bank tizimiga o'z ta'sirini o'tkazmaganligi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banking bank nazoratini tashkil etishda olib borayotgan siyosatini to'g'riligini yana bir bor isbotladi.

Albatta bu ko'rilayotgan choralar, amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatimiz bank-moliya tizimida yuzaga keladigan risklarni samarali boshqarishda va u bilan bog'liq muammolarni yechimi sifatida o'z aksini topadi.

## XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, mamlakatimiz bank nazorati tizimini rivojlantirish, uni eng zamonaviy talablar darajasida tashkil etish orqali kelajakda moliya-bank tizimini barqarorligini mustahkamlashda hamda iqtisodiyotni rivojlantirishda ulkan cho'qqilarga erishiladi, albatta.

Banklar o'z faoliyatida mavjud riskni aniqlashi, uni qabul qilishi, kuzatib borishi va boshqarish qobiliyatiga tayyor ekanligini o'z zimmasiga olishi lozim. Buning uchun bank rahbariyati o'z faoliyati, bank ishi jarayonlari bo'yicha to'liq bilimga ega bo'lishi lozim. Bank risklarini boshqarishda ma'lum tamoyillarga rioya qilish katta ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Bizning fikrimizcha, bank risklarini boshqarishning asosi qilib quyidagi tamoyillar olinishi lozim:

- ➡ o'z kapitalidan ortiq summaga risk qilmasligi;
- ➡ riskning oqibatlari to'g'risida o'ylashi, zararlarni qoplash manbalarini prognozlashtirish, ularni sifat jihatidan o'lchash lozimligi;
- ➡ risklarni moliyalashtirish, ularni kamaytirishni rag'batlantirish;
- ➡ kam daromad olish imkoniyatida yuqori risk qilishiga intilmasligi;
- ➡ bankning barcha bo'limlarida risklarni nazorat qilish.

Risklarni boshqarishning asosiy usullari bo'lib quyidagilar olinishi maqsadga muvofiqdir:

- ➡ risklarni o'lchash usullaridan foydalanish;
- ➡ tashqi risklarni hisobga olish;
- ➡ bank mijozining moliyaviy ahvolni muntazam nazorat qilib borish, to'lovga layoqatlilik ko'rsatkichlari, reytingini aniqlash va boshqalar;
- ➡ riskni taqsimlash yo'lini qo'llash, kreditni qayta moliyalashtirish;
- ➡ diversifikatsiya siyosatini o'tkazish;
- ➡ banklarning hisobga olish opretsiyalarini kengaytirish;
- ➡ kreditlar va depozitlarni sug'urtalash;
- ➡ garov asosida kreditlashni kengaytirish va boshqalar.

Bu tamoyil va usullarga asosan bank o'zida mavjud resurslar atrofida risk

qilishi, risk qilishi uchun uni zararlarga olib kelmasligini va faoliyat natijasini o'lbay olishi lozim. Risklarni boshqarish samaradorligini kuzatib borish va boshqa operatsiyalar bo'yicha risklarni boshqarishning asosiy vazifasi u yoki bu riskning tabiiyligi va mumkinligi darajasini aniqlash, risklilik holatlarining yo'nalishini aniqlash va tez orada amaliy choralar ko'rish, u yoki bu operatsiyalarni o'tkazishdan bo'lishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarning oldini olish imkoniyatini beradi.

Bank risklarini kamaytirishda aktiv va passivlarni boshqarishga ham alohida e'tibor qaratilishi lozim. To'g'ri yo'lga qo'yilgan boshqaruv risklarni kamaytiradi. Chunki, bankning aktiv va passivlarini boshqarish bo'limi doimiy risklarni baholab, jalb qilingan passivlarni to'g'ri transformasiyasini amalga oshirishi, aktivlarni deversifikasiyasiga alohida e'tibor berish lozim.

Riskni kamaytiruvchi asoslardan biri bank menejmenti hisoblanadi. Bank boshqaruvchilari har bir operatsiyalar bo'yicha javobgar. Shuning uchun yuqori mahorat va riskni baholay olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Bank menejerlari nafaqat bankning ichki riskka ta'sir etuvchi omillari balki, tashqi omillarni ham tahlil qila olishi kerak.

Respublikamizda oqilona va ta'sirchan bank nazoratini amalga oshirilishi, bir tarafdin, banklarning o'z faoliyatini to'g'ri tashkil etishlariga, xususan ularning moliyaviy barqarorligining mustahkamlanishiga ijobiy tasir ko'rsatadigan bo'lsa, ikkinchi tarafdin moliya bozorida erkin raqobat muhitining vujudga kelishiga xizmat qiladi va shu bilan birga, mamlakatimiz banklarining xalqaro miqyosda munosib o'rin egallashlariga munosib zamin yaratadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. T.: Adolat, 1999.
2. O'zbekiston Respublikasining «Markaziy banki to'g'risida»gi Qonuni. - T., 1995.
3. O'zbekiston Respublikasi «Banklar va bank faoliyati to'grisida»gi. Qonuni. - T., 1996.
4. O'zbekiston Respublikasining «Garov to'g'risida»gi Qonuni, 1998 yil 1 may
5. O'zbekiston Respublikasi «Valyutani tartibga solish to'g'risida»gi qonunni
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida»gi 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli Qarori
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida »gi 2015 yil 6-maydagi PQ-2344-sonli Qarori
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora – tadbirlari to'g'risida» gi Farmon 2005 yil 15 iyun.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora – tadbirlari to'g'risida» gi qarori 2005 yil 15 aprel
10. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2014 yilda pul-kredit sohasidagi vaziyat va monetar siyosatning 2015 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari
11. Karimov I.A. 2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir
12. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1998 yil 2 noyabrda tasdiqlangan 422-sonli «Bir qarzdor yoki o'zaro daxldor bo'lgan qarzdorlar

- guruhiga to‘g‘ri keluvchi tavakkalchilikning eng yuqori darajasi to‘g‘risida”gi Nizom
13. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2000 yil 26 apreldagi 420-sonli “Tijorat banklari kapitalining etarligiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizom
  14. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1998 yil 2 dekabrdaagi “Tijorat banklari likvidligini boshqarishga bo‘lgan talablar to‘g‘risida”gi 421-sonli Nizom
  15. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1998 yil 2 dekabrdaagi “Tijorat banklarining kreditlari bo‘yicha foizlarni o‘stirmaslik siyosati to‘g‘risida”gi Nizom
  16. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2000 yil 22 fevraldaagi 432-sonli “O‘zbekiston Respublikasi banklarida kredit hujjatlarini yuritish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom
  17. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank 2011 yil 7 maydaagi 740-sonli “Tijorat banklarining bank tavakkalchiliklarini boshqarishiga nisbatan qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida” gi nizomi
  18. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 242-sonli «Tijorat banklari tomonidan aktivlar sifatini tasniflash, ular bo‘yicha yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlar o‘rnini qoplash uchun tashkil etiladigan zaxiralarni shakllantirish va ulardan foydalanish Tartibi».
  19. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari / – T.:O‘zbekiston, 2009.
  20. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to‘g‘risida. - T.: O‘zbekiston, 2005.
  21. Abdullaeva. SH.Z. Bank risklari va kreditlash. T., «Moliya», 2002.
  22. Лаврушин О.И. Управление деятельностью коммерческого банка (банковский менеджмент). М. Юристь, 2003

23. О.И. Лаврушин, Н.И. Валенцева Банковские риски: учебное пособие 2009
24. Усоскин В.М. Современный коммерческий банк: управление и операции.
25. Беляков А.В. Банковские риски: проблемы учета, управления и регулирования. 2003.
26. Роуз Питер С. Банковский менеджмент. М.: Дело, 1995
27. Панова Г.С. Кредитная политика коммерческого банка. М.: 1997
28. Хохлов Н.В. Управление риском: учеб. пособие для вузов.
29. Костюченко Н. Анализ кредитных рисков 2010
30. Е.В.Пустынникова Основы менеджмента 2011
31. О.И. Лаврушин О.Н.Афаньсева С.Л.Корниенко Банковское дело 2009
- 32.Р.Г.Одъхова Банковское дело: управление в современном банке 2009
33. А.Н.Фомичев Риск-менеджмент 2008
34. М.О.Маркова Н.Н.Мартыненко О.С.Рудакова, Н.В.Сергеева  
Банковские операции 2012
35. Обзор Базельского соглашения по капиталу.- Базель: БМР, 2003
36. АТВ «Agrobank»ning 2014 yillik moliyaviy hisoboti ma'lumotlari.
37. "Xalq bank" ning 2014-yillik moliyaviy hisoboti ma'lumotlari.
38. Internet saytlari  
[www.lex.uz](http://www.lex.uz)  
[www.norma.uz](http://www.norma.uz)  
[www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)  
[www.agrobank.uz](http://www.agrobank.uz)  
[www.xalqbank.uz](http://www.xalqbank.uz)  
[www.stat.uz](http://www.stat.uz)  
[www.uza.uz](http://www.uza.uz)  
[www.banking.com](http://www.banking.com)  
[www.bis.org](http://www.bis.org)